

XALQ VA ARMIYA – BIR TAN-U BIR JON!

VATANPARVAR

IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan

www.mv-vatanparvar.uz



2022-yil 18-mart, №11 (2970)

@vatanparvar-bt@umail.uz



**Assalom, Navro'z – yangilanish,
mehr-oqibat va qadr-qimmat
bayrami!**

СОЛИҚ ЮКИНИ КАМАЙТИРИШ ВА СОҲАНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ВАЗИФАЛАРИ БЕЛГИЛАНДИ

Президент Шавкат Мирзиёев Давлат солиқ қўмитасида соҳани такомиллаштириш бўйича навбатдаги вазифалар юзасидан йиғилиш ўтказди.

Сўнги йилларда мамлакатимиз солиқ маъмуриятчилиги тубдан ислоҳ қилинмоқда. 2019 йил декабрда янги таҳрирдаги Солиқ кодекси қабул қилиниб, тўғридан-тўғри қўлланивчи нормалар жорий этилди. Солиқлар сони 13 тадан 9 тага камайтирилди. Мулк солиғи ставкаси 5 фоиздан 1,5 фоизга, қўшилган қиймат солиғи 20 фоиздан 15 фоизга туширилди. Иш ҳақиға нисбатан солиқ юки қарийб 2 баравар камайтирилди.

Буларнинг натижасида тадбиркорларнинг ислохотларга ишончи ортиб, солиқ тушумлари 4 баравар кўпайди. Қўшилган қиймат солиғи тўловчилар сони 6 мингдан 152 мингга етди.

Тараққиёт стратегиясида бу борадаги ислохотларни давом эттириб, солиқ маъмуриятчилигини соддалаштириш вазифалари белгиланган.

– Биз инсон кадрини улуғлашни эълон қилдик, халқимизни рози қилишга ҳаракат қиляпмиз.

Халқимиз қачон рози бўлади? Солиқ кам бўлиб, даромади ошса, – деди Шавкат Мирзиёев.

Хусусан, 2026 йилга бориб, иқтисодиётга солиқ юкини 25 фоизгача камайтириш мақсад қилинган. Шунингдек, 2023 йилдан қўшилган қиймат солиғини 12 фоизгача тушириш, кейинчалик ер ва мулк солиқларини бирлаштириш мўлжалланган.

Йиғилиш аввалида мутасаддилар бажарилган ишлар тўғрисида ахборот берди.

Давлатимиз раҳбари солиқ идоралари фаолиятини яхшилаш, бунинг учун ахборот технологияларини кенг жорий этиш зарурлигини таъкидлади.

Бунинг натижасида жараёнлар тўлиқ автоматлаштирилади, «яширин иқтисодиёт» ҳажмини камайтириш учун солиқ тўсиқлари бартараф этилади, кадрлар салоҳияти мустаҳкамланади.

Давлатимиз раҳбари дунёдаги тез ўзгарувчан, мураккаб вазиятда солиқ тушумлари барқарорли-

гини таъминлаш, тадбиркорларга кўмак бериш зарурлигини алоҳида таъкидлади.

– Мен бу ерга солиқ тўловчиларнинг вакили бўлиб келдим, – деди Президент. – Бизга ҳозир тушум ошиши асосийси эмас. Биринчи навбатда, тизимни тўғри қилиб, билмаганларга ўргатиб, солиқ юкини камайтириб, тадбиркорларнинг эмин-эркин, ҳалол ишлашини йўлга қўйишимиз керак. Солиқчилар жазоловчи эмас, кўмакчи бўлиши керак.

Айтиб ўтилганидек, айрим ҳолларда тадбиркорлар янги дастур ва талабларни тушунмагани сабабли кўплаб саволлар ҳам пайдо бўлмоқда. Шунинг учун «Солиқчи – кўмакчи» таъмоили асосида уларга янги ишлашни ўргатиш, электрон хизматлар қамровини ошириш зарурлиги таъкидланди. Солиқ қўмитасига барча ҳудудларда тадбиркорлар билан мулоқотлар ўтказиш, оммавий ахборот воситалари орқали халққа ҳи-

сobot бериб бориш вазифаси қўйилди.

Солиқ тизими давлат корхоналарини трансформация қилишда фаол иштирок этиши, уларга таннархни пасайтириш ва молиявий барқарорлик бўйича йўл-йўриқ кўрсатиши кераклиги айтилди.

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 4 ноябрдаги қарорига мувофиқ, Давлат солиқ қўмитаси ҳузурида Фискал институт ташкил этилган эди. Давлатимиз раҳбари у ерда кадрлар тайёрлаш сифатига эътибор қаратди. Солиқ идоралари ходимларини тизимда жорий қилинаётган янги ИТ-дастурлар бўйича ўқитиш, шунингдек, хорижда мутахассислар малакасини ошириш муҳимлиги қайд этилди.

Солиқ идораларини коррупциядан холи тизимга айлантириш бўйича топшириқлар берилди.

ЎЗА

#Konferensiya

БИАТЛОН ФЕДЕРАЦИЯСИГА РАИС САЙЛАНДИ

Жорий йилнинг январь ойда Адлия вазирлигида рўйхатдан ўтказилган Ўзбекистон Биатлон федерациясига раис сайланди.



Мудофаага кўмаклашувчи «Ватанпарвар» ташкилоти Марказий кенгашида бўлиб

ўтган Ўзбекистон Биатлон федерациясининг навбатдан ташқари II конференциясида мудофаа ва-

зирининг ўринбосари полковник Қодиржон Турсунов федерация раиси лавозимига сайланди.

Шунингдек, видеоконференц-алоқа шаклида ўтказилган йиғилишда федерациянинг раис ўринбосари лавозимига ҳам номзодлар кўриб чиқилди. Республика бўйича иштирок этган федерация ташкилий гуруҳ аъзолари томонидан «Ватанпарвар» ташкилоти Марказий кенгаши раиси ўринбосари Алишер Абдусаматов раис ўринбосари лавозимига лойиқ деб топилди.

Конференция давомида Биатлон федерациясининг истиқболдаги режалари белгилаб олинди.

Ш. ШАРИПОВ

V ХАЛҚАРО «ЖАМОА РУҲИ»: ҲАРБИЙ РАЗВЕДКАЧИЛАРИМИЗ МУВАФФАҚИЯТИ

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги терма жамоаси Покистон Ислон Республикасида бўлиб ўтган V Халқаро «Жамоа руҳи» мусобақасида иштирок этди. Унда Ўзбекистон разведкачилари рекорд натижа қайд этиб, шоҳсупанинг энг юқори поғонасидан жой олди.



Мусобақа Покистон Ислон Республикаси Қуrollи Кучларига қарашли 22-армия корпуси Терроризмга қарши курашиш миллий ўқув маркази (Пабби шаҳри) базасида ўтказилди. Унда 9 та давлат: Мароқаш, Иордания, Кения, Саудия Арабистони, Туркия, Шри-Ланка, Непал ва Ўзбекистон Республикаси, шунингдек, Покистон Ислон Республикасидан 8 та разведка гуруҳи, жами 16 та жамоа ўзаро беллашишди.

Жараёнларни Тожикистон, Қозоғистон, Баҳрайн ва Хитой давлатларининг Қуrollи Кучлари вакиллари кузатиб борди.

Мусобақа шартларига кўра, жамоалар 80 км.гача бўлган маршрутнинг 6 та назорат нуқтасида азимут бўйича ҳаракатланиб, тактик-маҳсус, отиш, тиббий, алоқа, муҳандислик тайёргарлиги, оммавий қирғин қуrollларидан ҳимояланиш ва ҳарбий топографиядан турли маҳсус синовларни, шунингдек, кутилмаган тестларни ечиш машқларини бажардилар. Мусобақа давомида мамлакатимиз ҳарбий жамоаси ўзининг жипслиги ва қўйилган вазибаларни юқори савияда бажариши билан ажралиб турди.

Таъкидлаш лозимки, мамлакатимиз Мудофаа вазирлиги терма жамоаси қуръага биноан биринчи назорат нуқтасидан 10-бўлиб ҳаракатланишни бошлаган бўлса-да, матонат кўрсатган ҳолда мусобақанинг учинчи назорат нуқтасига қолган жамоалардан 6 соат олдин етиб борди ва энг юқори (2 850) баллни қўлга киритди.

Мусобақа якунида Покистон Ислон Республикаси Қуруқликдаги қўшинлар қўмондони генерал-майор Аднан Ўзбекистон Республикаси ҳарбий хизматчиларининг жисмоний ва профессионал тайёргарлигини алоҳида таъкидлаб, «Ўзбекистон жамоаси кучли эканлигини билардим ва 1-ўринни эгаллашига шубҳам йўқ эди», дея жамоамизга юқори баҳо берди.

Мусобақа якунига кўра, 3-ўринни Шри-Ланка (2 010 балл) ва Саудия Арабистони (1 900 балл) жамоалари, 2-ўринни Мароқаш жамоаси (1 860 балл) эгаллаган бўлса, Ўзбекистон Республикаси жамоаси катта устунлик билан (2 850 балл) фахрли 1-ўринни қўлга киритиб, олтин медаль билан тақдирланди.



Музаффар ҳарбийларимиз Ислон Каримов номидаги Тошкент халқаро аэропортида тантанали тарзда кутиб олинди. Унда Мудофаа вазирлиги раҳбарияти, кенг жамоатчилик вакиллари, курсантлар, ҳарбий хизматчиларнинг оила аъзолари ва оммавий ахборот воситалари ходимлари иштирок этди.

Тантанали тадбирда мамлакатимиз терма жамоаси аъзолари ўзларини соҳибқирон Амир Темур, Жалолиддин Манғуберди каби буюк аждодларимизнинг муносиб давомчилари эканлигини яққол намоен этгани, улар билан бутун Ўзбекистон аҳли фахрланиши яна бир бор таъкидланди. Ўзбекона урф-одатларимизга кўра, музаффар ҳарбийларимиз елкасига зарбоф тўнлар ташланди.

Мудофаа вазирлиги марказий аппаратида юртимиз доврўгини яна бир бор дунёга танитган, она Ватан байроғини баланд хилпиратган ҳарбий хизматчиларни тақдирлашга бағишланган тантанали тадбир бўлиб ўтди. Унда мудофаа вазири генерал-лейтенант Баҳодир Қурбонов, вазир ўринбосарлари ва видеоконференц-алоқа орқали барча ҳарбий округ қўмондонликлари вакиллари иштирок этди.

Ҳарбий разведкачиларимиз эришган ютуқ юксак баҳоланиб, жамоа мудофаа вазири томонидан кўкрак нишонлари ва эсдалик совғалар билан тақдирланди.

**Лейтенант
Ислонжон ҚўЧҚОРОВ,
«Vatanparvar»**



ER YIGITLAR

EL POSBONI

Bolalarning aksari “Askar bo‘laman!” degan orzu bilan ulg‘ayadi. Ammo vaqt o‘tishi bilan bu orzular ro‘yobi hammaga ham nasib etavermaydi. Harbiy xizmatga jismonan sog‘lom, ma‘nan yetuk o‘g‘lonlarga saralab olinadi. Saralanganlar orasida o‘z farzandini ko‘rgan otalar ko‘nglidagi g‘urur, onalar ko‘zidagi quvonch yoshlari sababi ham aslida shundan.

TOSHKENT HARBIY OKRUGIDA

Toshkent shahar mudofaa ishlari boshqarmasida muddatli harbiy xizmatga saralab olingan er yigitlarni Qurolli Kuchlar safiga kuzatishga bag‘ishlangan tantanali tadbir ham ana shunday quvonchli lahzalarga boy bo‘ldi.

Joylarda “Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!” shiori ostida o‘tkazilayotgan harbiy qismlarga tashriflar, yurtdoshlarimizni armiyada yaratilayotgan shart-sharoitlardan voqif bo‘lishiga asos bo‘lmoqda. Pirovardida, farzandlari ishonchli qo‘llarda ekanligiga amin bo‘layotgan ota-onalarning ko‘ngli xotirjam.

– O‘g‘il farzandim bitta. Bugun uni yigitlik burchini bajarishi uchun harbiy xizmatga kuzatishga keldik, – deydi

Dilafuz Qahhorova. – O‘g‘limning harbiy xizmatga borish qarorini boshida xohlamadim. Ochiq eshiklar kunida harbiy qismlarga borib, yaratilgan shart-sharoitlarni ko‘rganimdan keyin farzandimning fikri juda to‘g‘ri ekanligini tushundim. Saralash jarayonlarida uning yonida bo‘lib, doim qo‘llab-quvvatladim. Tengqurlari orasidan sanoqli yigitlarga harbiy xizmatga borish nasib etdi. Ular safida o‘g‘limning ham borligidan juda xursandman.

SHIMOLI-G‘ARBIY HARBIY OKRUGDA

Ota-onalari ko‘ngliga hayajon solgan er yigitlar Qoraqalpog‘iston Respublikasidan ham Qurolli Kuchlarimiz safiga kuzatildi.

Muddatli harbiy xizmatni o‘tash uchun yo‘l olgan mard o‘g‘lonlarni tantanali



kuzatish marosimida Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni polkovnik Farhodjon Shermatov, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniylar, faxriylar hamda chaqiriluvchilarning yaqinlari ishtirok etdi.

Tadbirida so‘z olganlar Vatan himoyasi har bir yigit uchun muqaddas ekanligi, bunday sharafli burch eng sara o‘g‘lonlarga nasib etishini ta‘kidladi.

MARKAZIY HARBIY OKRUGDA

Ta‘kidlash joizki, o‘tgan ikki yil mobaynida pandemiya sabab yurtimizda joriy etilgan karantin tufayli muddatli harbiy xizmatga chaqiriluvchilarni kuzatish tadbirlari keng jamoatchilikning ishtirokisiz o‘tkazilgan edi. Aslida xursandchilik onlarini yaqinlarning bilan o‘tkazishga nima yetsin. Saralangan jizzaxlik o‘g‘lonlarning armiya saflariga kuzatish marosimi ularning yaqinlari ishtiroki bilan o‘zgacha bo‘lib o‘tdi. Unda

viloyat hokimligi, okrug qo‘mondonligi hamda davlat, jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi. Tadbirida so‘z olganlar barcha sohalar qatori Qurolli Kuchlarda ham yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish kerakligini ta‘kidladi. Nuroniylar yoshlarning harbiy xizmatni yorug‘ yuz bilan o‘tab qaytishini tilab, duo qilishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kuzatilayotgan bo‘lajak askarlarning kundalik ehtiyojlari uchun sovg‘alar to‘plami topshirildi. Bayramona dasturxon yozilib, osh tortildi. Shundan so‘ng yigitlar harbiy orkestr sadolari ostida temiryo‘l vokzali orqali muddatli harbiy xizmatni o‘tash uchun jo‘nab ketdi.

Saralangan yigitlarni muddatli harbiy xizmatga kuzatish ishlari barcha harbiy okruglar kesimida davom etmoqda.

Sherzod SHARIPOV,
«Vatanparvar»

ҲАРБИЙ ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТАШКИЛ ЭТИЛГАНИГА 30 ЙИЛ ТЎЛДИ

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси мустақил миллий прокуратура тизимининг ажралмас таркиби, ўзаги сифатида ўз тарихи, тажрибаси, салмоғи ва салоҳиятига эга. Ҳарбий прокуратура органлари ўз ривожланиш йўлида узоқ йўл босиб ўтган, ушбу тарих йўли Қуролли Кучларнинг фаолияти билан чамбарчас боғлиқдир.



Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 28 февраль санасидаги «Ҳарбий прокуратура органлари ва ҳарбий трибуналлар тўғрисида»ги фармони билан Ўзбекистон ҳудудида жойлашган ҳарбий прокуратура органлари собиқ Иттифоқ прокуратураси тизимидан чиқарилган ҳамда Туркистон ҳарбий округи ҳарбий прокуратураси негизига Ўзбекистон Қуролли Кучлари Ҳарбий прокуратураси ташкил этилган. Қуролли Кучларда қонунийлик ва ҳуқуқ тартиботни таъминлаш, республика ҳудудида жойлашган барча ҳарбий қисмлар, қўшилма ва бирлашмалар, ҳарбий-ўқув билим юртлари, муассасалар ҳамда бошқа ҳарбий тузилмаларда прокурор назоратини амалга ошириш Қуролли Кучлар Ҳарбий прокуратурасининг асосий вазифалари этиб белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси прокуратурасига бир ойлик муддатда Ҳарбий прокуратура тўғрисидаги низомни ишлаб чиқиш ва Ўзбекистон Республикаси Мудофаа ишлари вазирлигига ҳарбий прокуратура органларини молиялаштириш, моддий-техник ва моддий таъминлаш вазифаси юклатилган. Ушбу фармонга асосан, мудофаа вазири ҳамда Бош прокурорнинг тегишли буйруқларига асосан, Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Ҳарбий прокуратурасининг ва 10 та гарнизон ҳарбий прокуратураларининг ташкилий-штат тузилмаси тасдиқланган.

Ташкилий-штат тузилмасига кўра, Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Ҳарбий прокуратурасида генераллар, офицерлар, прапорщик ва муддатли ҳарбий хизматчилар хизмат ўташи ва маҳкамада 4 та асосий таркибий тармоқнинг, яъни тергов бўлими, умумий назорат бўлими, ҳарбий судларда ишлар кўрилишида қонунларнинг ижроси устидан назорат бўлими ва реабилитация масалалари бўйича назорат бўлимининг фаолият кўрсатиши назарда тутилган.

1993 йил 17 майда Ўзбекистон Республикаси Бош прокурори томонидан «Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Ҳарбий прокуратураси тўғрисида»ги низом тасдиқланган.

Мустақил давлатимизда Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Давлат чегарасини ҳимоя қилиш қўмитаси, Ички ишлар вазирлигининг ички ва қоровул қўшинлари бош бошқармалари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигининг ҳарбий округлари ташкил этилгани муносабати билан, Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларида, ҳарбий муассасаларда ҳамда вазирликлар ва идораларнинг ҳарбийлаштирилган таркибий тузилмаларида қонунчиликка риоя қилиниши устидан тўлиқ ва самарали прокурор назоратини таъминлаш Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Ҳарбий прокуратурасини такомиллаштириш ва қайта ташкил этиш зарурияти пайдо бўлди.

Шу мақсадда, Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 1999 йил 30 март куни «Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратурасини ташкил қилиш тўғрисида»ги фармони қабул қилинган. Фармонга кўра, «Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Ҳарбий прокуратураси»нинг мавжуд штатлар сони асосида Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси ташкил этилган ва унинг таркибида 4 та ҳарбий округ ҳарбий прокуратураси жорий қилинган. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси штат бирлигида Бош прокурор ўринбосари – Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурори лавозими жорий этилган.

Мазкур фармон билан Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратурасининг ташкилий-штат тизими тасдиқланиб, Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурорининг биринчи ўринбосари, Республика Ҳарбий прокуратураси маҳкамасида 4 та бошқарма, 5 та бўлим ва девонхона ташкил этилган. Жойларда 14 та ҳудудий ҳарбий прокуратура фаолияти йўлга қўйилган.

Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 1999 йил 14 апрелдаги «Ҳарбий прокуратура органлари тўғрисида»ги буйруғи билан «Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси тўғрисида»ги низом, мудофаа вазири ва Бош прокурорнинг тегишли буйруқлари билан Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратурасининг янги ташкилий-штат тузилмаси тасдиқланган. Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 2000 йил 17 январь кунги «Прокуратура ташкил этиш ҳақида»ги буйруғига асосан, Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси тизимида Наманган ҳарбий прокуратураси ташкил этилган.

Бош прокурорнинг 2001 йил 25 январдаги «Прокуратура ташкил этиш ҳақида»ги буйруғига асосан, Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 9 январь санасидаги қарори билан Мудофаа вазирлигининг «Тошкент» бирлашган қўмондонлиги негизига Тошкент ҳарбий округи тузилганлиги муносабати билан Тошкент ҳарбий округи ҳарбий прокуратураси ташкил этилиб, Тошкент шаҳри ва вилояти маъмурий ҳудудидаги ҳарбий қисм, ўқув юртлари ҳамда тегишли ҳарбий муассаса ва идоралар фаолиятида прокурор назоратини олиб бориш вазифаси юклатилган.

2002 йил 19 июнь кунги Бош прокурорнинг буйруғи билан «Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси тўғрисида»ги янги таҳрирдаги низом тасдиқланган. Қонунчиликда ҳамда Қуролли Кучларда амалга оширилган ислохотларни инобатга олган ҳолда, Бош прокурорнинг 2009 йил 19 май кунги буйруғи билан «Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси тўғрисида»ги низом тасдиқланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 8 августдаги фармонида асосан, Қарши ҳарбий прокуратураси, Марказий ҳарбий округ ҳарбий прокуратураси ва Фарғона ҳарбий прокуратураси тугатилиб, улар ҳисобидан Урганч ва Гулистон ҳарбий прокуратуралари ташкил этилган. Мудофаа вазирининг 2017 йил 16 майдаги директивасига асосан, Жануби-ғарбий алоҳида ҳарбий округ ҳарбий прокуратураси негизига Қарши ҳарбий прокуратураси, Тошкент ҳарбий округи ҳарбий прокуратураси негизига Тошкент ҳарбий прокуратураси, Шарқий ҳарбий округ ҳарбий прокуратураси негизига Фарғона ҳарбий прокуратураси ва Шимоли-ғарбий ҳарбий округ ҳарбий прокуратураси негизига Нукус ҳарбий прокуратураси ташкил этилди.

Ҳозирда, Республикаимизнинг барча вилоят марказларида 14 та (Нукус, Урганч, Қарши, Термиз, Бухоро, Навоий, Самарқанд, Жиззах, Гулистон, Тошкент, Чирчиқ, Наманган, Фарғона, Андижон) ҳудудий ҳарбий прокуратуралар фаолият юритмоқда. Барча ҳудудий ҳарбий прокуратуралар вилоятлар марказларида замонвий ва барча қўлайликларга эга алоҳида биноларда жойлашган.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, прокуратура органлари мустақилликнинг дастлабки йилларидан мустақилликни мустаҳкамлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, жамият ва давлатнинг қонун билан қўриқланадиган манфаатларини ҳимоя қилиш, жиноятчиликка қарши кураш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва профилактика қилишда таянч орган вазифасини ўтади. Ўтган йиллар давомида прокуратура тизими ривожлантирилди, ислохотларга ҳамоҳанг тарзда прокуратура фаолиятининг услуб ва шакллари такомиллаштирилди. Унинг ҳуқуқий мақоми ва давлат-ҳуқуқий институтлари тизимидаги ўрни мустаҳкамланди. Эътироф этиш лозимки, сўнги йилларда ҳарбий прокуратура тизими ҳар томонлама ўсди-улғайди, моддий-техника базаси мустаҳкамланди, ходимлар сафи иқтидорли ёшлар билан тўлдирилди.

Президентимиз ташаббуси билан амалга оширилаётган суд-ҳуқуқ ислохотлари нати-

жасида прокуратура органлари чинакам халқ прокуратурасига айланиб бормоқда. Бу жараён Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси органларининг фаолиятида яққол намоён бўлмоқда. Хусусан, ҳарбий прокуратура органлари фаолиятида жамоатчилик билан ҳамкорликни янада яқинлаштириш, фаолиятида очиқликни таъминлаш, фуқаролар билан яқиндан, бевосита ишлашга эришиш мақсадида қабул қилинган қонунларнинг мазмун ва моҳиятини аҳолига ҳамда ижрочиларга етказиш бўйича учрашувлар, семинарлар, конференциялар, давра суҳбатлари ўтказишга алоҳида эътибор берилмоқда. Ҳарбий хизматчилар ва аҳолининг турли қатламлари вакиллари билан бевосита мулоқотга киришишга имкон берувчи ҳамда уларга ўзларини қизиқтирган саволларни бериш ва уларга жавоб олиш, муҳокама қилинаётган муаммо бўйича ўз таклифларини билдириш имкониятини яратувчи маърузалар, суҳбатлар, учрашувлар каби тарғибот тадбирларидан самарали фойдаланилмоқда.


Хусусан, охириги 5 йилда ҳарбий хизматчилар ва бошқа фуқаролар иштирокида жами 45 599 та тарғибот тадбири ўтказилди. Шундан 94 112 таси оммавий ахборот воситалари имкониятларидан фойдаланган ҳолда олиб борилди. Ҳарбий прокуратура органларининг асосий устувор вазифаларидан бири – жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларини қонунда ўрнатилган тартибда кўриб чиқиб, муаммоларга ечим топишдан иборат. Шу мақсадда Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг ўринбосари – Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурори, унинг ўринбосарлари, жойлардаги ҳудудий ҳарбий прокурорлар томонидан мутасадди идоралар вакиллари иштирокида мунтазам равишда оммавий сайёр ҳамда шахсий қабуллар ўтказилиб, аксарият мурожаатлар қонуний ҳал қилинмоқда.

Жумладан, охириги беш йил давомида 35 274 нафар шахс ҳарбий прокуратура органларида қабул қилинди, жисмоний ва юридик шахсларнинг 16 561 та мурожаати ўз ечимини топди. Мурожаатларини кўриб чиқишда 1 686 нафар шахснинг бузилган ҳуқуқлари тикланди, 6 млрд 180 млн сўм етказилган зарар қопланиши таъминланди. Бу даврда Республика Ҳарбий прокуратураси органлари томонидан қонунчилик ижроси устидан назорат йўналишида 30 512 та шахснинг бузилган ҳуқуқлари тикланиб, 2 346 нафар ҳарбий хизматчининг оила аъзолари иш билан таъминланишига эришилди. 14 млрд 147 млн сўм давлатга етказилган зарар давлат бюджетига қайтарилди. Шу билан бирга, жиноят оқибатида етказилган 578 млрд 63 млн сўм айбдор шахслардан дастлабки тергов жараёнида ундирилиши таъминланди, судларга киритилган 35 млрд 314 млн сўмлик 200 та даъво аризаси қаноатлантирилди.

Ишонч билан айтиш мумкинки, бугун ҳарбий прокуратура органлари ходимлари зиммасига юклатилган ҳар қандай вазифани бажаришга виждонан, садоқат ва юксак масъулият билан ёндашмоқда. Янги Ўзбекистон сари олға қадам ташлаётганимизда, Республика Ҳарбий прокуратураси органлари Қуролли Кучларда қонунчиликни таъминлаш, фуқаролар, ҳарбий хизматчилар ва улар оила аъзоларининг қонун билан қўриқланадиган ҳуқуқ ва манфаатларини муҳофаза қилиш ва албатта, халқни рози этиш йўлида садоқат билан хизмат қилади.

**Генерал-майор Шухрат УЗАКОВ,
Бош прокурор ўринбосари –
Ўзбекистон Республикаси
Ҳарбий прокурори,
Ўзбекистон Республикасида
хизмат кўрсатган юрист**

Ўттиз йил... Бир инсоннинг камолот палласи. «Ватанпарвар» газетасининг ўттиз йиллик фаолияти — буни сарҳисов қилиш мушкул. Ўтган йилларнинг сарҳисоби илм аҳллари, тадқиқотчилар зиммасида. Биз ўзбек миллий армиясининг шаклланиш йилларида унинг садоқатли йўлдоши бўлган «Ватанпарвар» газетасининг фидокорлари ҳақида сўз айтишни ният қилганмиз.



УМР МАЗМУНИГА АЙЛАНГАН ЙИЛЛАР

Мудофаа вазирининг маслаҳати билан газетага ишга таклиф қилинаётган журналистлардан жанговарлик талаб қилинмасди. Қалами ўткир бўлсин! Шундай ижодкорларни саралаш мақсадида Ўзбекистон Миллий университети ҳарбий кафедралари амалиёт машғулотларини тахририятда ўтказишларини йўлга қўйдик. «Ватанпарвар» Бирлашган тахририятида бир неча йиллар бош муҳаррир лавозимида хизмат қилган шогирдларимиздан бири истеъфодаги полковник Алижон Сафаров ҳам ана шундай амалий машғулотлардан танлаб олинган эди. Ёки истеъфодаги подполковник Фурқат Мелиев – у муддатли ҳарбий хизматни хизмат сафари сифатида газета тахририятида ўтаган ва шу шарафли йўлни танлаган.

Бугун алоҳида ҳарбий журналистлар тайёрланяпти. Қувонарли ҳол. Яқин йилларга қадар юртимизда ҳарбий журналистикадан сабоқ берадиган таълим муассасаси йўқ эди. Бу вазифани «Ватанпарвар» газетаси бажариб келди, деб ишонч билан айта оламан.

Газета ҳақида гапирадиган гапларим, эслашга арзирли хотираларим кўп. У Қуролли Кучларимиз ҳаётида кечган ҳар бир ўзгариш, ангиликдан халқимизни хабардор қилиб келди, келмоқда. Миллий армиямизнинг жанговар ҳаракатлари ҳақида ҳолис, бирламчи хабарларни эълон қилди. 2000 йилда мамлакатимизнинг жанубий сарҳадларидаги жанговар ҳаракатларни ёритишда муҳбирларимиз фаол иштирок этди. Офицерлар Худойназар Жуманазаров, Комил Жабборов, Абдураззоқ Обрўев, Азимбек Усмонов, Камил Миргалаутдинов, Ярослав Корука, Алижон Сафаров билан елкама-елка хизмат қилганимдан фахрланаман.

«Ватанпарвар»да кечган йилларим, ҳеч шубҳасиз, ҳаётимнинг энг сермазмун дамларидир!

СЎНГ СЎЗ ЎРНИДА

Устоз иродали инсон. Оғир хасталикни енгиб чиқдилар, эл хизматидалар. Айни кунда Ўзбекистон Касаба уюшмалари федерацияси музейи директори лавозимида фаолият олиб бораётганлар. Гўзал, элга ўрнатилган бўлишга арзирли оилалари бор.

«Ватанпарвар» газетасининг шарафли тарихида устоз Ирисмухаммад Абдукаримовнинг ёш авлодга ибрат бўлар муносиб ўрни бор.

Қадрли устоз, шогирдларингиз ҳам Сиз билан ёнма-ён, бир сафда меҳнат қилганидан фахрланади, жумладан, мен ҳам.

Инобат ИБРОҲИМОВА,
«Vatanparvar»



Истеъфодаги полковник Ирисмухаммад Қосимович Абдукаримов. Бу инсон «Ватанпарвар» газетасининг биринчи бош муҳарриридир!

Улар билан икки йилнинг нари-берисида ишладим. Шу қисқа фурсат ичида уларни яхшигина танидим, билдим. Газета ҳафтада уч марта чиқар эди. Тезкорлик талаб қилинарди. Кичик хабарга ҳам эътиборли эдилар. Ёзган мақолаларимдан мамнунликларини яширмаганлар. Бу менга рағбат бўлган, руҳлантирган.

2005 йилда истеъфога чиқдилар. Ишлаётган, ризқ ейдиган жойингизда ҳамкасблар билан бир оилага ўхшаб қоласиз. Айтмоқчиманки, уларни кузатиш осон бўлмаган. Орадан бир мунча вақт ўтиб, қайсидир байрам ёки тўй муносабати билан йиғилганимизда, рафиқалари Шоира опа ҳаяжон билан шундай дегандилар: «Сиз тасаввур ҳам қила олмайсиз, унга жуда оғир бўлди. «Ватанпарвар» унинг дунёси, ҳаёти мазмуни эди. У узоқ вақт ўзига келолмади...» Опани тинглар эканман, газетанинг компьютерда саҳифаланиш жараёнларига ўтиш даври кўз олдимга келди. Агар сиз ўша жараёнларга бугуннинг нуқтаи назаридан қарасангиз, унда ҳеч қандай мушкулотни кўрмайсиз. Аммо 2000 йилларнинг бошида бу ғоят мураккаб эди. Соҳада мутахассислар етишмасди. Ярим тунга қадар давом этган шундай кунларнинг бирида кўзлари киртайган, ҳорғин ҳолда, олағовурда мени кўриб қолиб: «Инобат, ҳозирги аҳволимиз ҳақида мемуарларингизда эслаб ўтасиз-да...» деб кулганлар.

Рости, ҳолатимиз куладиган эмасди. Уша пайт булар ҳақида ёзиш ҳаёлимда ҳам йўқ эди. Бироқ «мемуар» яхши ғоя.

Газета ишига бу қадар муҳаббат қандай пайдо бўлган? Бу олис ёшлик билан боғлиқ, менимча. Устознинг «Оҳангарон» газетасида бирмунча вақт мусахҳиҳ бўлиб ишлаганларини яқинда билдим. Бу ишнинг оҳанрабоси бор. Бундан ташқа-

ри, «Ватанпарвар» ташкил этилган дастлабки йилдан, аниқроғи, 1993 йилдан бош муҳаррирлик лавозимида ўн йилдан кўпроқ хизмат қилиш, қисқа бир вақт ичида республика матбуотининг энг кўзга кўринган ижодкорларини жалб қилган ҳолда кучли жамоа тузиш ҳақиқий етакчиларга, фидойиларга хосдир.

Булар ҳақида узоқ йиллар тахририят кадрлар бўлимини бошқарган Қуролли Кучлар хизматчиси Жаннат Валиева шундай дейди:

– Кадрлар танлашда адашмаганлар. Баъзан қаттиққўл эдилар, буни тушуниш керак, ҳарбий ташкилотда интизом масаласи биринчи ўринда туради. Қийинчиликларга қарамай ўз ишини севган, виждонан бажарадиган фидойилардан иборат катта жамоа туздилар. Бу борада қилган фидокорона хизматлари давлатимиз томонидан муносиб рағбатлантирилган. Мамлакатимиз мустақиллигининг 8 йиллиги муносабати билан давлатимизнинг юксак мукофоти – «Жасорат» медали билан тақдирландилар. Бугун ўз ўрнига эга газета пойдевори айнан шу инсон раҳбарлик қилган жамоа меҳнатларининг маҳсулидир.

Келинг, биз эмас, ўша шарафли йиллар ҳақида устознинг ўзларидан эшитамиз.

БИЗНИНГ ЙЎЛИМИЗ...

– «Ватанпарвар» газетаси бош муҳаррири лавозимида тавсия қилинганимда Рустам Аҳмедов суҳбатида бўлдим. Суҳбатдан сўнг номзодимни маъқулланди, эътирозлар бўлган, аммо сўнги қарорни мудофаа вазири қабул қилди. Бунда, албатта, ўзбек адабий тили ва рус тилини мукамал билганим ҳам аҳамият касб этган, деб ўйлайман. Чунки газета мустақилликнинг дастлабки йилларида икки тилда чоп этилиши кўзда тутилган эди.

Осон бўлмаган. У кунларни яхши хотирлайман. Мен бош муҳаррир лавозимида хизмат қилган бўлсам-да, ўзимни маҳоратли журналист деб ҳисобламаганман. Раҳбар эдим, ижодкорларга таяндим. Раҳматли Худойназар Жуманазаров, Абдураззоқ Обрўев, Азимбек Усмонов каби қалами ўткир журналистлар газета саҳифаларида ўзбек адабий тилининг устунлик касб

этишини таъминлаганлар. Машҳур адибимиз Ўткир Ҳошимов (*охиратлари обод бўлсин*) қўллаб-қувватлаганлар. Улкан адибларимиздан Иброҳим Раҳим (*охиратлари обод бўлсин*) газетамизнинг дўсти эдилар. Унинг «Генерал Равшанов» асари китоб бўлиб чиқмасидан аввал илк марта «Ватанпарвар» саҳифаларида эълон қилинган.

Жўшқин йиллар эди. Ғурур-ла эслашга арзирли ишларимиз бор. Мустақилликнинг дастлабки ўн йили осон кечмаган. Мамлакат иқтисоди мақтанарли ҳолатда эмасди. Ана шундай вақтда аскар мактублари бепул жўнатилишига эришганмиз. Эҳтимол, ҳозирги кунда бу у қадар ҳам катта иш саналмас, аммо ўз даври учун амалга ошиши қийин бўлган. Иқтисодий вазият сабаб эди.

Кейинги йилларда 14 январь – Ватан ҳимоячилари куни байрами тобора умумхалқ тусини олиб бормоқда. Бошланиши арафасида катта тайёргарликларга гувоҳ бўляпмиз. Ана шу қутлуғ кунни белгилаш, байрам қилиб нишонлаш таклифи илк марта «Ватанпарвар» газетаси саҳифаларида эълон қилинди. Таниқли ижодкорлар бу жиддий мавзуга айнан газета орқали жамоатчилик эътиборини қаратишга муваффақ бўлдилар: Ватан ҳимоячилари куни байрами бўлиши ва у катта тантаналар билан нишонланиши лозим! Қисқа қилиб айтганда, «Ватанпарвар» бу улғу байрамнинг асосий ташаббускоридир!

Юқорида айтганимдек юртнинг таниқли ижодкорлари бизнинг яқин маслаҳатчимиз, дўстимиз бўлган. Улардан бири улкан шоир Омон Матжон (*охиратлари обод бўлсин*) эди. Кунларнинг бирида шоир шундай деб қолди: «Миллий армиямиз ҳақида болаларга маълумот берадиган, уларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашда асқатадиган маърифий бир асар бўлса эди...» Буни ғоят ўринли бир таклиф сифатида қабул қилдим. Ўйлаб қолдим. Шунинг ўзим ёзишга уриниб кўрсамми, деган ўй кечди, кўнглимдан. Фикримни жамоага ҳам билдирдим. Маъқулландилар. Рўҳланиб ишга киришиб кетдим-у, қийин ишга қўл урганимни секин-аста англадим. Болага сўз айтиш масъулияти... осон эмас! Асосан кечалари ишладим. Бобо ва набира суҳбати асосида қурилган бу китоб «Мен генерал бўламан» деган ном билан дунё юзини кўрди.



Тарихга назар ташласангиз, буюк саркардалар, олимлар, шоирлар, ёзувчилар қаторида, буюк полвонлар ҳам борлигига гувоҳ бўласиз. Шулардан бири афсонавий турк полвони хоразмлик Пахлавон Махмуд эди.

ПАХЛАВОН МАХМУД РУБОЙЛАРИ

Бир оқил дейдики, бўлгил валломат,
Ёки валломатга қила кўр хизмат.
Номард хизматига ёндашма зинҳор,
Ўйлагин бу ўғит қандоқ пурҳикмат.

Уч юз Кўҳи Қофни келида туймоқ,
Дил қонидан бермоқ фалакка бўёқ,
Ёинки бир аср зиндонда ётмоқ,
Нодон суҳбатидан кўра яхшироқ.

Чарх урфи ситамдир, ки яралган дамдан,
Сидқ аҳли халос бўлмади дард, мотамдан.
Ит бўлайин вафоси бор одамга,
Ит яхши вафоси бўлмаган одамдан.

БУЮК ХАЛҚНИНГ ЎҒЛОНЛАРИ ПОЛВОҢ БЎЛУР

Пахлавон Махмуд 1247 йилда Хива шаҳрида пўстиндўз оиласида дунёга келган. Шу боис Махмуд ҳам шу касбга ихлос қўйган. Жуда ёшлигидан хат-саводи чиққан. Кўп ўқиган, кўп уққан. Натижада буюк шоир, файласуф бўлиб етишган.

Пахлавон Махмуд полвонмисан полвон бўлган, ҳаётида бирон марта кураги ерга тегмаган.

Маълумки, кўҳна Урганч мўғуллар истилосидан кейин вайрон қилинганидан сўнг унинг аҳолиси ҳар томонга тарқаб кетади. Пахлавон Махмуднинг онаси ҳомиладор ҳолида отаси билан Хива атрофидаги ҳозирги Қиёт кишлоғига келиб ўрнашади. Пахлавон Махмуд шу ерда туғилган.

Пахлавон Махмуд 15 ёшидаёқ мард курашчи, машҳур пахлавон сифатида донг таратган.

Ўқиганим бор: Пахлавон Махмуд Ҳиндистонга борганида бўлажак курашда ўғлига омад тилаб турган рақибининг онасини учратади. Шунда аёл ўзларининг тирикчилиги ўғлининг кураши эвазига эканлигини Пахлавон Махмудга сўзлайди.

– Узоқ Хоразмдан бир зарбардаст пахлавон келибди, у авлиё ҳам эмиш. Демак, авлиё бўлса, ўғлимга омонлик бермас...

– Пахлавон бировга зарар етказиб, уни касбу маошидан айирмайди, – дейди Махмуд ва ўзини таништирамасдан онаизорни юпатади.

Пахлавон Махмуд Ҳиндистон диёрида ҳинд халқи тарафида туриб, душман билан мардларча жанг қиладди. Ҳиндистон подшоҳининг ҳаёти хавф остида қолганда уни бир неча марта ўлимдан қутқариб қолади. Кунлардан бир кун подшоҳ овга чиқади ва ҳурматли меҳмон сифати-



да Пахлавон Махмудни ҳам ўзи билан бирга олади.

Шум тақдирни қарангки, бир оҳунинг ортидан тушган шоҳ отини учуриб борар экан, жар ёқасига тушиб, чиқолмай қолади. Унинг изидан келаётган Махмуд жарга тушиб, шоҳни оти билан елкасига даст кўтариб, жардан чиқариб қўяди. Шунда шоҳ ҳайратланиб:

– Сен Аллоҳ бандасининг қўлидан келмайдиган ишни



қилдинг. Шунча кучинг билан саройнинг ёш полвонидан енгилишинг сабаби нима? – деб сўрайди.

Шунда Пахлавон Махмуд зиёрат чоғида рақибининг онасини учратиб, уларнинг тирикчилиги кураш эвазига ўтаётганлигини билгани учун йиқилиб бериш-

дан ўзга чораси қолмаганини айтади. Подшоҳ Рай Ропойнинг унга меҳри яна ҳам ошиб, тила тилагингни, дейди. У подшоҳдан мол-дунё, олтин-кумуш сўрмайди. Ҳинд элида худди асир сингари яшаётган хоразмлик муҳожирларни озод қилишни сўрайди. Подшоҳга:

– Менга бир ҳўкизнинг хомига (ҳўкиз терисига) сиққанича ватандошларимни озод қилиб беринг, – дейди. Подшоҳ рози бўлади ва ҳўкиз терисини келтиришни буюради. Пахлавон Махмуд теридан ингичка тасмалар қирқиб олади ва уларни бир-бирига улаб узун камар қилиб шунга сиққанча одамларни олиб, Хивага жўнайди.

Пахлавон Махмуд даврида яшаб ўтган Эрон шоҳи курашга жуда қизиқар экан. У бунёд этган кураш майдонида учта супа бўлиб: биринчи супа ўз вазни билан тенг полвонларга, иккинчиси вазнидан оғир бўлган полвонларга, учинчи супа эса барча вазнагилар билан курашадиган пахлавонларга мўлжалланган экан. Пахлавон Махмуд учинчи супага келиб ўтиради. Шунда Эрон шоҳи ундан: «Бу қанақа супа эканлигини биласанми?» деб сўрабди. У «Менга фарқи йўқ, хоҳлаган полвонингиз билан курашга тушавераман», деб жавоб берибди. Махмуд ушбу мусобақада саккиз номдор полвоннинг елкасини ерга теккизибди. Шундан сўнг Эрон шоҳи минг олтин тангага сотиб олган баҳайбат қора танли полвонни майдонга чақариб: «Агар хоразмлик полвонни енгсанг, минг танга олтин ва яна озодлик бераман!» дебди. Буни эшитган Махмуд номига кураш тушган бўлиб, атайлаб йиқилиб берибди.

Эрон шоҳи ниҳоятда хурсанд бўлиб, полвонга минг олтин танга бериб, қулликдан озод этибди. Рақибининг тантилик қилганини билган қора танли полвон олтин тангаларни унинг олдига келтириб қўйибди. Махмуд уларни олмай: «Сен қул эдинг, энди озод бўлдинг! Бу пуллар сенинг ўз юртингда оёққа туришингга керак бўлади», деган экан.

Пахлавон Махмуд 1326 йилда вафот этган.

Абдураззоқ ОБРЎВ тайёрлади.





Хавфсизлик, тинчлик ва осойишталик ҳар қандай давлат тараққиётининг асосий кафолати саналади. Аини шу маънода 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг «Тараққиёт стратегияси»да мамлакатимиз хавфсизлиги ва муҳофаза салоҳиятини кучайтириш, очиқ, прагматик ва фаол ташқи сиёсат олиб бориш масаласи еттинчи устувор йўналиш сифатида белгиланган.

Бугунги кунда мазкур тарихий аҳамиятга молик ҳужжатда кўрсатилган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида, барча куч тузилмалари томонидан ўзаро ҳамкорлик асосида тизимли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати Чегара қўшинлари ва Давлат Божхона қўмитаси вакиллари иштирокидаги ишчи учрашув ҳам, Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган «Тараққиёт стратегияси»ни «Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»да амалга оширишга оид давлат дастурида белгиланган

вазифаларнинг ҳамкорликдаги ижросига бағишланди.

Қайд этиш лозимки, сўнгги йилларда мамлакатимиз раҳбарияти томонидан яқин қўшничилик алоқалари ва дўстона муносабатларнинг мустаҳкамлангани, туризм соҳасини янада ривожлантиришга қаратилаётган эътибор, республикамиз аҳолиси ва меҳмонларига барча соҳаларда хизмат кўрсатиш сифатини яхшилаш бўйича олиб борилаётган ислохотлар, Давлат чегараси орқали ўтишда фуқароларга яратилаётган шарт-шароит ва қулайликлар ҳамда ўтказиш пунктлари инфратузилмасининг йилдан-йилга такомиллашиб бора-

ҲАМКОРЛИКДАГИ ВАЗИФАЛАР КЕЛИШИБ ОЛИНДИ

ётгани, юртимизга кириб келаётган йўловчи ҳамда транспорт воситалари оқимининг тобора ортишига хизмат қилмоқда.

Шу боис, «Тараққиёт стратегияси»да мазкур йўналишда амалга оширилаётган ишларни янада жадаллаштириш, Давлат чегараси орқали ўтказиш пунктларидан ҳаракатланаётган шахсларга қулайликлар яратиш, шахс ва транспорт воситаларининг ўтказиш имкониятини янада ошириш вазифаси белгиланган.

Учрашув давомида мазкур вазифаларнинг ижросини таъминлаш, давлат дастури асосида истиқболда амалга ошириладиган чора-тадбирлар юзасидан ўзаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш, шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг ўтказиш пунктлари фаолияти, уларни реконструкция қилиш ва кенгайтириш орқали ўтказувчанлигини ошириш мақсадида амалга ошириладиган ишлар ва чегара-божхона назоратига оид бошқа маълумотларни оммавий ахборот воситалари орқали кенг ёритиб бориш механизмининг белгилаб олиш ва ўзаро ҳамкорлик режасини ишлаб чиқиш хусусида сўз юритилди.

Кун тартибидаги барча масалалар юзасидан иштирокчиларнинг таклиф ва мулоҳазалари тингланиб, ўзаро келишувлар амалга оширилди. Таъкидлаш жоизки, ўтказилаётган бу каби учрашувлар Янги Ўзбекистоннинг «Тараққиёт стратегияси»да белгиланган вазифаларни ушқоқлик билан, самарали ижро этилишида муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Майор Фарида БОБОЖОНОВА
ДХХ Чегара қўшинлари

#Mulohaza

Мавжуд маълумотлар таҳлили, бугунги кунга қадар Марказий Осиё ҳудудларидаги барча тоифадаги ресурслар учун геосиёсий кураш ҳамда ғаразли мақсадлардаги ташқи кучлар томонидан минтақа давлатлари орасида ҳудудлараро келишмовчиликларни келтириб чиқарилаётганлиги муносабати билан Ўзбекистон ҳукумати минтақа ва Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги доирасида ҳарбий ва ҳарбий-техник соҳаларда ҳамкорликни мустаҳкамлаш, шунингдек, ўзаро манфаатли шерикликдан изчил манфаатдор эканлигини кўрсатмоқда.

Шуни таъкидлаш жоизки, шундай оғир геосиёсий ва иқтисодий вазиятда мамлакатимиз минтақадаги замонавий қурол-аслаҳа ва ҳарбий техникалар билан бутланган, жаҳон стандартларига мос бўлган инфратузилмага эга мобиль ва кучли ҳисобланган армияни яратди. Ўзбекистоннинг Мудофаа доктринаси ўз номи билан мудофаа хусусиятига эга бўлиб, мамлакатнинг ҳарбий-сиёсий иттифоқлардаги иштирокини ва ўз ҳудудида хорижий ҳарбий базаларни жойлаштиришни рад этиб, бошқа давлатлар билан фақатгина самарали ҳарбий-сиёсий йўналишдаги ҳамкорлик қилишни белгилайди. Минтақа давлатлари ўртасида тартибга солинмаган айрим муаммоларнинг мавжудлиги, шунингдек, Афғонистондаги ҳарбий ҳаракатлар билан узвий боғлиқлик кўп жиҳатдан минтақа мамлакатларининг ҳамкорлиги

устувор йўналишларини белгилайди. Ушбу мақсадда Ўзбекистон минтақада тинчлик ва барқарорликни сақлашга қаратилган интеграция ташаббусларини мунтазам равишда олдинга сурмоқда.

2018 йилнинг январь ойига қадар, Ўзбекистон ўзининг мудофаа сиёсатини 1995 йил 30 августда қабул қилинган Ҳарбий доктринага асосан амалга ошириб келиб, Ўзбекистон Республикаси суверен давлат ва халқаро муносабатлар субъекти сифатида ўзининг мудофаа сиёсатини барча мамлакатларнинг тинч-тотув яшаши, бошқа давлатларнинг ички ишларига аралашмаслик, уларнинг суверенитети ва мустақиллигига ҳурмат, шунингдек, мавжуд давлатлараро чегараларнинг яхлитлиги ва ўзгармаслиги тамойилларига таянган. Шу билан бир қаторда, Ўзбекистон барча мамлакатлар билан ўзаро манфаатли муносабатларни

ЎЗБЕКИСТОН ТАШҚИ СИЁСАТИДА ҲАРБИЙ-СИЁСИЙ Йўналишнинг АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

ривожлантириш, унинг халқи ҳаётини яхшилаш, халқаро ҳуқуқнинг умумэтироф этилган нормалари ва тамойилларига асосланган ижтимоий тизимни мустаҳкамлаш учун қулай шарт-шароитлар яратиш кераклиги кўрсатилган. Шунингдек, аввалги доктринада манфаатдор давлатлар ва жаҳон ҳамжамиятининг фаол иштирокида Марказий Осиё минтақавий хавфсизлик тизимини ривожлантириш кўзда тутилган.

2018 йил январь ойида қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси мамлакатимизнинг мудофаа хусусиятини ўзида акс эттиради. Шу муносабат билан у ҳеч бир давлатни ўз рақиби деб ҳисобламайди ва мамлакатнинг миллий манфаатлари устуворлиги асосида ҳамда халқаро ҳуқуқнинг умумэтироф этилган тамойиллари ва нормаларини, бошқа давлатларнинг ички ишларига ўзаро манфаатдорлик, тенг ҳуқуқлилиқ ва аралашмаслик, барча баҳсли масалаларни тинч ва музокаралар йўли орқали ҳал этиш, мавжуд давлатлараро чегараларнинг бузилмаслиги ва ўзгармаслигини

этироф этиш асосида барча мамлакатлар билан муносабатлар амалга оширишга таянади. Бундан ташқари, янги доктринада Ўзбекистон ҳарбий сиёсатини белгилашда «ҳарбий» сўзининг «мудофаа»га ўзгартирилганлиги инobatга олинди, мамлакатнинг ҳарбий сиёсати мудофаа хусусиятига эга эканлиги, шунингдек, ўз ҳарбий контингентини мамлакат ташқарисидан иштирок этишига йўл қўймаслиги аниқ белгиланди.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон минтақада жойлашган ўрнидан келиб чиқиб, Марказий Осиёда хавфсизликни таъминлашда, жумладан, терроризм, қурол-яроғ, наркотик, заҳарли ва портловчи моддалар ноқонуний айланишига ҳамда одам савдосига қарши курашда муҳим роль ўйнайди. Ўзбекистоннинг Афғонистондаги инқирозни бартараф этиш борасидаги икки ва кўп томонлама саъй-ҳаракатлари бу мамлакатда тинчлик ва барқарорликка эришишда муҳим аҳамият касб этади.

Бекзод САИДМУРОДОВ,
мустақил тадқиқотчи



ТАШРИФИНГ МУБОРАК,

ФАСЛИ БАҲОРИМ!

Бутун оламини яшилликка буркаб яшариш, янгиланиш фасли — Баҳор кириб келди юртимизга! У ям-яшил кокиллари билан безанган шарқироқ ариқларнинг кунгай сохиллари, деворларнинг офтобруя этаклари бўйлаб келди диёримизга. Барчамиз бу фаслни қанчалик севиб, интиқлик билан кутган эдик. Қишнинг қаҳратонидан зериккан қароқларимиз бутун киш бўйи баҳор соғинчи, унинг орзуси билан яшади.

Бирор бир яшиллик илинжида узоқ қир-адирларга интизор-интизор термилган эдик. Мана қир-адирларга гулу чечаклар яна поёндоз тўшади. Дарёлар яна тўлиб-тошиб, ўйноқлаб-ўйноқлаб оқа бошлади. Дов-дарахтлар гуллаб, куртак чиқариб, барг ёзишга ошиқмоқда. Қалдирғочлар чуғурлашиб, кўкда арғимчоқ ясашида ҳам ўзгача жозоба бор. Бундай ранг-баранглик эса борлиқни гўзалликка, жозобага буркади. Қиз-жувонларнинг қувончини айтмайсизми?! Бундай пайтда баҳор уларнинг юзларида, кулгиларида бўй кўрсатади. Чиройли либослар кийиб толбарг ва қоқиўтдан ясаган чамбаракларини бир-бирига кўз-кўз қилишида жилваланади баҳор. Хонадонларимиз фаришталари бўлган кекса отахон онахонларимизнинг шукроналикка йўғрилган дуоларида бор баҳор, болажонларнинг шодон қийқиригида бор баҳор.

Осмондан ёғадиган марварид ёмғирда ҳам ҳикмат мўл. Ахир у баҳор ёмғири! У — ризқ-рўз демак. У — юрттаги мўл-кўлчиликка ишора. У табиатдаги ғуборларни аритиб, яшариш, янгиланиш завқини оширади. Атрофга яхшилаб разм солинг, сеҳргар она табиат зўр иштиёқ билан тароватли манзара ҳосил қилапти. Еру кўкни гўзаллик чулғади. Бу — Наврўздан нишона!

Қаранг, Наврўз бугун оламини, кўнгилларни яна мунаввар қилди. Соғинч онлари ўтиб, хумор кўзларда яна нур, муштоқ қалбларда яна қувонч балқиди. Инсонга беадад хузур бағишловчи, уни энтиктирувчи Наврўз табиатнинг инсонга аталган бебаҳо инъомидир. У — гўзаллик ва нафосат тимсоли. Инсон дунёга келибдики, табиийликни ва табиийликка йўғрилган гўзалликни, нафосатни эъзозлайди. Бу ҳақда шундай ривоят бор:

Умр бўйи боғу роғларга минглаб турфа гулларни ўтказиб, янги гул навларини яратиш билан донг таратган бир боғбон қариб, оёқ-қўлидан мадор кетиб тўшакка михланиб қолибди. Шунда у невараларини ёнига қакириб, ҳар тонг унинг ёнига бир кучоқ атиргул олиб келишларини сўрабди. Боболарининг

бу гапидан неваралари хайрон бўлишибди. Ахир боғларида атиргулдан-да чиройли, ундан-да ёқимли хид таратувчи гулу чечаклар бор. Нега бобомиз ўзлари яратган бу гулларни тилга олмади? Невараларининг хайронлигини сезган бобо шундай дебди:

— Атиргул — қадимий гул. У ана шу қадимийлиги ва хушбўйлиги билан мен умрим мобайнида яратган гулларимдан ҳам яхшироқ. Унинг нафислигидан, муаттар ҳидидан барча бирдек роҳатланади. Чунки унда табиий гўзаллик бор, деган экан.

Дарвоқе, ана шу биз қадрлайдиган табиийлик ўзининг бутун бўй-басти, файзи, таровати билан айни Наврўз кунларида кўз ўнгимизда намоян бўлади. Бу намоянликни кўклам даракчиси, элчиси Баҳорой елиб-югуриб, ҳар биримизнинг қалбимизга сингдиради. Беадад марҳаматлар кўрсатиб, кўнглимизни шодумон этади.

Мана шундай доруламон кунларда атрофга суқланиб, завқланиб боқамиз. Чунки ҳар тонг бу фасл ўзгача кўринишда жилваланади-да. Ана дарахтлар гулларини тўқяпти. Ерга оппоқ парқудек ёғилаётган гулбарглар худди мўъжизанинг ўзгинаси! Яхшилаб разм солсангиз, эндигина новдалардан бўртиб чиқаётган куртакларда ҳам ўзгача гўзаллик мужассам. Табиатдаги бу кўркемлик, бу уйғониш, бу яшариш юракка сурур, ижод аҳлига битмас-туганмас илҳом бахш этади. Ҳатто қушларнинг чуғур-чуғурида ҳам Наврўзнинг мадҳи бордек. Уни тинглаб туриб, ҳаётга, яшашга бўлган иштиёқ, муҳаббат ортади қалбимизда. Қаранг, Наврўз қандай олийжаноб. Унинг борлиққа бўлган хуш тавозеси бениҳоя гўзал, латиф ва эзгуликка ошурфта. У ўзига берилган вақт ичида барчанинг кўнглини олсам, уларга ёруғлик ва меҳр улашсам, дейди.

Диққат қилинг-а, Баҳорой эрта тонгда эсан майин ва сархуш шаббода сингари сахийлик ва саховат билан юрагимизни нурга, эзгуликка тўлдирмоқда. У ўрик гулларида, қуёшга интилаётган майса гиёҳларининг майин тебранишида намоян бўлади.

Дилингизнинг яйраб, хушнудлик, шукроналик сингари илиқ хис-туйғулар бутун борлигингизни чулғаб, билакларингизда куч-қувват, вужудингизда ғайрат жўш ураётганлигининг сабаби ҳам шунда.

Биласизми, Наврўзнинг айнан 21 март санасига тўғри келишини олимлар илмий асослаб берганлар. Худди шу кунда коинот ва табиат қонуниятларига кўра, қуёш ҳамал буржиги кириб, тун билан кун тенглашади, кун узаяди ва деҳқончилик фасли авж паллага киради. Нафақат табиатда, балки гўё жамиятда ҳам уйғониш бошланади: деҳқон даласига, боғбон боғига ошиқади, чўпон-чўликлар чорвасио қўй-қўзисига парвона бўлишади. Табиат билан инсоннинг ўзаро уйғунлиги ҳам айнан баҳорда яққол акс этади: Аллоҳнинг иродасини қарангки, ерга ташланган битта уруғдан мингта барака унади, қўйлар қўзилайди, борлиқ яшариб кетади. Шунинг учун ҳам шарқона янги йил ўзи билан янгиланиш, баҳор нафасини бошлаб келиши, халқимизнинг табиати, онгу тафаккури, қалбига чуқур сингиб кетгани билан қадрли, азиз ва суюкли миллий байрам саналади. У миллий маънавиятимиз ривожига улкан ҳисса қўшган муҳим шодиёна ҳамдир. Бу кунда юртимизнинг ҳар бир гўшасида турли миллий

ўйинларни ўйнаш авжигача чиқади. Сумалак, ҳалим, кўксомса, кўкчувара каби миллий тамоларимиз байрам дастурхонининг кўркига айланади. Айниқса, сумалак базмларининг ўзгача шукуҳи бор.

Ҳа, бу айёмнинг гашти бошқача. Шу кунда момоларимиз Наврўзга атаб ўланлар айтишади, бахшилар дostonлар куйлашади. Наврўз баҳонасида гина-кудуратлар унутилади, кўнгиллар тозариб, барча бир-бирларига шодлик улашади. Ҳар бир гўшада умумхалқ ҳашари қизийди. Маҳаллаю гузарлар, хонадонлар янаям обод бўлади. Бир сўз билан айтганда, Наврўз — бутун мазмун-моҳияти билан қалбимизга эзгулик, гўзаллик, юртимизга тинчлик, тотувлик, янгиланиш ва яшнатиш онларини бахш этади! Шунинг учун ҳам улуғ мутафаккир бобомиз Алишер Навоий: «Ҳар тунинг қадр ўлубон, ҳар кунинг бўлсин Наврўз», дея бежиз таъкидламаган.

Кўкламин хуш келдинг! Баҳор ва Наврўз байрами барча юртдошларимизга муборак бўлсин. Айём ўлкамизга, халқимизга қут-барака, тўкин-сочинлик, омонлик ва фарахбахш ҳаёт олиб келсин!

*Аввал юрагингга мўралайди у,
Сўнгра куртакларга ўргатади сўз.
Заминнинг кўзидан қочади уйку,
Демак, баҳор келди,
келмоқда Наврўз.*

*Яна кўнгиллардан рутубат кетди,
Яна шуълалардан қамашмоқда кўз.
Яна дилдорликнинг фурсати етди,
Демак, баҳор келди,
келмоқда Наврўз.*

Гулнора ҲОЖИМУРОВА



Poytaxtimizdagi "Psixosfera" amaliy psixologiya markazida harbiy psixologlar uchun bir oylik malaka oshirish kursi o'z ishini boshladi. Soha mutaxassislarning kasbiy malakasi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, shu orqali qo'shinlardagi axloqiy-ruhiy holatning sifat va samaradorligini yanada yuqori bosqichga ko'tarish maqsadida tashkil etilgan mazkur kursda tinglovchilar tajribali amaliy psixologlar, konsultantlar, trener va kouchlardan soha sirlari bo'yicha saboq oladilar.

Mashg'ulotlarda asosan ekstremal holatlarda harbiy xizmatchilarning ruhiy zo'riqishlarga bardosh berish, psixologik yordam bergan holda ularni qo'llab-quvvatlash, shu bilan birga jangovar holatlarda qo'rqvni yengish va boshqaruvchanlikni ta'minlash va uslublariga urg'u beriladi.

– Bilamizki, harbiy jamoada psixologik ishlarni to'g'ri tashkillashtirish o'sha joyda sog'lom ma'naviy muhitning barqarorligi uchun xizmat qiladi. Chunki qachonki, harbiy xizmatchi jismonan va ma'nan sog'lom bo'lsagina yuzaga keladigan har qanday qiyin sharoitda ruhiy holatini nazorat qila oladi, his-tuyg'uga berilmaydi, – deydi Mudofaa vazirligi Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar bo'limi boshlig'i podpolkovnik Sherzod Ravshanov. – Kuchli iroda, bardoshlilik va sabr-qanoat kabi fazilatlarni namoyon qiladi. Bu fan tilida insonning yuksak axloqiy-ruhiy sifatleri deyiladi. Bu sifatlar esa o'z navbatida

PSIXOLOGLAR MALAKA OSHIRMOQDA



III darajali serjant Olim BERDIYEV

harbiy xizmatchida g'alabaga intilish, yuqori jangovar faollik, mardlik, dadillik, vaziyatni to'g'ri baholash, psixologik ta'sirlarga qarshi turish, mashaqqatlarga bardosh berish kabi qobiliyatni shakllantiradi. Toblanadi, intizomi

ortadi. Har jihatdan toblangan kuchli harbiy xizmatchilar esa armiyaning kuch-qudratini belgilaydi.

Mayor Gulnora HOJIMURODOVA

#Milliy armiyamiz yoshlar nigohida

MARDLAR HAYOTIGA NAZAR

Buxoro viloyati Jondor tumanida joylashgan 2-umumta'lim maktabi o'quvchi-yoshlari bilan birgalikda Qorako'l tumanida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismda "Milliy armiyamiz yoshlar nigohida" shiori ostida "Mardlar hayotiga nazar" mavzusida tadbir tashkil etildi.



Tadbir doirasida o'quvchi-yoshlarga harbiy qismda harbiy xizmatchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

Harbiy qismning "Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi tarixi" sinfiga tashrif buyurib, buyuk bobokalonlarimiz hayotiga oid tarixiy voqealar hamda jasorat, mardlik, vatanparvarlik, fidoyilik

kabi buyuk xislat egalarning ibratli hayot yo'liga oid qimmatli ma'lumotga ega bo'lishdi.

Tadbir so'ngida harbiy qism to'siqlar yo'lagi va jismoniy tayyorgarlik maydonida navqiron yoshlar ishtirokida sport bellashuvlari o'tkazildi. Tadbir barchaga birdek manzur bo'ldi.

#Ma'naviyat

OILA – VATAN ICHIDAGI KICHIK VATAN

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida 21-mart – Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuv va suhbatlar o'tkazilib kelinmoqda.



Toshkent viloyati Olmaliq shahrida joylashgan harbiy qismda o'tkazilgan bu galgi tadbir ham bayramona ruhda bo'lib, unda Qurolli Kuchlar faxriylari va soha mutaxassislari ishtirok etdi. Tadbirda so'z olganlar O'zbekiston Qurolli Kuchlarida so'nggi yillarda olib borilayotgan ulkan islohotlar to'g'risida ma'lumotlar berib, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni alohida e'tirof etishdi.

Tadbir davomida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi eksperti, xalqaro toifadagi spiker, falsafa fanlari doktori, professor Jamila Shermuhammedova tomonidan Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobining taqdimot marosimi o'tkazildi.

Yakunda go'zallik va nafosatni madh etuvchi kuy va qo'shiqlar barcha dillarni xushnud etdi. Bu kabi ijodiy uchrashuvlar harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini keng dunyoqarashli va yuksak ma'naviyatli etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Бу қисса дунёнинг қадимий Қобқаси – дарвозаси ҳақида. У Рим, Афина ё Ер юзидаги энг кекса Бобил ё унинг иниси Миср ё орадан минг йиллар ўтиб, уларнинг олдиди гўдакдек пилдираб қотайган ва шўхрати визнинг замониимизга келиб кундан кун ошиб бораётган Буюк Хитой девориники эмас. Узок ўтмишда уларнинг дарвозаларидан фақат эркин ва қул қилинган одамлар, ўргатилган, ваъзан овда қўлга туширилган ёввойи ҳайвонлар ёки вазорга сотувга олиб келинаётган турли паррандаларгина кира олган. Уларнинг дарвозасидан ҳеч қачон улуг Тоғлар, поёнсиз Даштлару қақраган Саҳролар, сирли Ўрмонлар, чўққиларда ухлайдиган Булутлар суруви, ғайратини ўзига сиғди-ролмаган Дарёлар, Чақмоқлар, Бўронлар кира олмаган...

БУЮК ҚОПҚА ҚИССАСИ

ОНАҚУТ АФСОНАСИ

Бу Қобқа инсониятнинг энг қадимий тарихий ёдгорликларидан-да улғурокдир. Уларнинг орасидаги ёш фарқини аниқлашнинг иложи йўқ. Ҳатто ўша машҳур афсонавий шоҳ Жамшид туғилиши учун бу Қобқа камида неча минг марта оқилиб-ёпилиши керак бўлган. Уни аниқроқ тасаввур қилишнинг оддий ва осонроқ йўли куйидагича: Рим, Афина, Бобил, Миср, Буюк Хитой девори ва шоҳ Жамшид ҳам худди шу Қобқа орқали дунёга кириб келган эди. Уйқучи Булутлар, Бўронлар ва юқорида уларнинг ёнида санаб ўтганларимиздан ташқари дунёдаги барча Афсоналар ҳам мана шу Қобқадан биз яшаётган оламга кириб кела оларди фақат. У тириклик дунёси деб аталмиш бу Оламинг энг биринчи очилган ва энг охири ёпиладиган ягона Қобқаси эди.

Биздаги кексаларнинг айтишларича, унинг пайдо бўлиши ва илк очилишини биринчи бўлиб Сичқон кўрган экан. Сичқон воқеаси боқий Қобқа ҳақидаги афсоналарнинг энг кичиги эди. У сўзланаётган пайтда ҳар йили кун ва тун баҳсини унутади, қуёш, ой, юлдузлар тинглаш учун осмонда жой талашади, шамол болаларини эргаштириб келади, баъзи қумурсқалар ўрмалаб эгингча чиқиб олади, гоҳида қиссадан таъсирланган яшин кўздан якка дарахт устига йиқилиб тушади... Бу шундай қисса эди.

Уни ўтмишда Соҳибқирон Амир Темури Илёсхожа билан илк қақшатқич жангида қўллаб-қувватлаган шайх Хожа Размоз остонасида, ўшанда ҳал қилувчи паллада унинг зафар туғини осмонга баланд кўтарган мағрур Қабай Митан (*ҳозирги Қамаш*) шаҳри харобалари тепасида Йилбоши (*Наврўз*) айёмида дўмбира куйлари билан дунёни уйғотаётган Бахшидан ҳам эшитгандим. Шамоллар унинг атрофида рақсга тушарди. Дўмбраси уларга туркий Достон оҳангларини, Бахши унинг олис ўтмишдан келаётиб, шу ҳудудда бирпас тўхтаган сўзларини сочарди. Бахши дейди:

– Буни менга ёшлигимда момом, момомга момоси... ва унга улғу оқин Чингиз мадҳ этган Найман Она, унга эса Тангри охирул оқибат қут-барака малоиклари бошчиси мақомига кўтариб қўйган Онақут сўзлаб берган экан. Бу афсона ёлларий йигитнинг қисмати-га боғланган тулпор, ёвдан келувчи ўлимни тўсувчи мустаҳкам қалқон, ҳар қандай ёмонликни парчалаб ташлайдиган гурзи, фақат ёвузларнинг жонини олувчи қилич, ҳеч бир душман қочиб қутула олмайдиган ўқлар... билан бирга Тангри унга фаришталаридан бир нечасини хизматкор қилиб тайинлаган Турқутдан боболаримизга мерос бўлиб етиб келган.

АДИРМА БУРЖИДАГИ БАХШИ

Бу гал Бахшини яна Буддха барча оламлар билан учрашишни истаганда келиб турадиган ва унга ҳозиргача фан аниқлай олмаган сирли туморини беки-тиб кетган «Адирма шаҳри»нинг девори буржида учратдим. У одатдагидек, буюк Қобқа достонини айтаётганди. Бу достонни эшитиш учун ҳисобсиз майса-гиёҳлар Адирма шаҳри бағри-

ни тўлдирганди. Бир қарич ҳам очик жой йўқ. Сон-саноксиз ва чексиз хилма-хил ҳашоратлар, жонзотлар... Улар коинотдаги ўзга дунёлардан меҳмонга келгандек. Ҳақиқатданам, барча олам Адирма шаҳрига тўпланганди. Бахши куйларди:

...Гуноҳ Одамдан олдин пайдо бўлганди. Ҳали Одамда бирорта ҳам гуноҳ йўқ эди. Фақат унинг гирдида йўллар кўп эди. Баъзилари гуноҳга олиб борарди. Гуноҳга қўл чўзган кимса Тангри висолдан маҳрум бўларди. Висол жаннатда эди. Гуноҳ орттирган у ердан қувиларди. Шунча оғоҳлангиришга қарамай, Одам ва Ҳаво бир хато туфайли унга қўл урди...

Одам Ернинг бир парчаси, дилбанди эди. У доим: «Ё, Танграм! Одамни менинг туфроғимдан ясаб, мартабамни кўтардинг. Уни махлуқотлар орасида энг гўзали қилиб яратганингни ҳамма гапиряпти. Унинг дийдорини менга насиб этсанг, у бағримда яшаса», дея нола қиларди. Илтижолари ижобат бўлди. Одам ва Ҳаво гуноҳ орттирди.

ТУР, ЭЙ ҚУШИМ!

Бу пайтда Ер юзида жуда ҳам қудратли ёвуз Аҳраман дев ҳукмрон эди. Унинг нафасидан қоп-қора тутун осмонга ўрлаб, Ер юзидаги бошқа жонзотлар ёруғлик нималигини билишмасди. Бу зулмат ичида ваҳший қичқирлар, дилни ўртовчи аянчли фарёдлар эшитилиб турарди. Хуллас, ушбу маскан тим қоронғу бир ўлка бўлиб, фақат девлар, алвастилар, аждаҳо-лар, шафқат нималигини билмайдиган ҳар хил йиртқичлар ўлкасига айланганди. Тангри таоло Инсонни шундай жойга юбораётганди. Бу хабар бутун Борлиққа маълум бўлди. Фаришталар Одамни ким Ерга олиб тушар экан, деб ўйлаб туришганди. Тангри: «Тур, эй Қушим!» деб фармон берди. Аршнинг бир четида бир қуш бор эди. Неча минг замондан бери шу фурсатни кутиб ётувди. Қанот ёзиб парвоз этиб, ҳақ таоло ҳузурига келди ва таъзим қилди. Тангри унга: «Одам ва Ҳавони Ерга элт!» деб амр этди. Арш қуши: «Ерга мен қўна оламанми? У менинг шиддатимдан сочилиб кетади-ку!» деди. Ҳақ таоло: «Сен боравер, бундан ғам чекма», деди ва унинг қўниши учун тоғлар барпо қилиб, Ер юзини мустаҳкамлади. Насаф ёнидаги ҳозирги Қўнғиртов ўша буюк тоғларнинг энг қудратлиси ва маҳобатлиси эди. Арш қуши Одам ва Ҳавони елкасига миндириб парвоз қилди. Минг-минг йиллик масофани кўз очиб юмгунча босиб ўтиб, Ерга етиб келди. Лекин Ер Аҳраман девнинг қора тутундай нафаси орасида кўринмасди. Қуш зулматга чўккан Ерни айлана бошлади. Қуюқ қора тутунлар булути устида фақат Қўнғиртовнинг чўққилари кўриниб турарди.

ТАРАДДУД

Алқисса, энди гапни ердаги жонзотлардан эшитинг. Одам ва Ҳавонинг келаётганини эшитиб, ёвуз махлуқлардан бошқа ҳамма хурсанд бўлди. Уни кутиб олиш учун Қўнғиртовга йўл олишди. Йўлда кўз кўриб, қулоқ эшитмаган кўп қийинчиликларга дуч келишди. Қанчадан қанча жонзотлар йиртқичларга ем бўлди. Йўл азобига чидаёлмай баъзилари изига қайтди, яна қанчаси келган

жойида қолди. Фақат Туя, Йўлбарс, Сигир, Илон, От, Қуён, Маймун, Товуқ, Ит, Қобон, Қўй ва Балиқ кўзланган манзилга етиб келди. Улар: «Қани, ким биринчи бўлиб ёруғликни кўрар экан», дея баҳслаша бошлади. «Энг аввал мен кўрсам керак, чунки бўйим ҳаммадан узун», деб ўйлади Туя. Бошқалар ҳам ёруғликни, янги даврни ҳаммадан олдин кўриш иштиёқида тадбир ўйлай бошлади. Ҳамма ўй билан банд эди. Туя эса узун бўйини чўза-чўза чарчади ва кўзи илинди. Шу пайт даврага Сичқон келиб қўшилди. У жуда кичкина бўлгани учун уни ҳеч ким пайқамасди. Сичқон секингина Туянинг устига, ундан бошига чиқди. Худди шу дамда Арш қуши момақалдиросдай гумбирлаб, осмону фалакни тешиб ўтибди ва қўниш учун Қўнғиртовга урилибди. Унинг шиддатли зарбидан шундай қудратли тоғ қумдай умалиб, ҳар томонга сочилиб, ундан саҳролар пайдо бўлибди. Осмон шишаси чил-чил синиб, минг-минглаб майда бўлакчаларга бўлинибди. Бу синиқ зарралар сон-саноксиз юлдузларга, Арш қуши тешиб кирган жой буюк Қобқага айланибди. Ундан Тангри таоло барча жонзотларни кузатиб турар эмиш. Унинг нигоҳи шу қадар ёрқин эканки, шу сабабдан унга тик қараб бўлмас экан. Барча махлуқот бу туйнукни Кун, Одам фарзандларини Кун фарзандлари ёки Кунлар, баъзилари Тур қушига нисбат бериб Тур қавми деб атабди.

ЙИЛБОШИ – НАВРЎЗ – КУН ПАЙДО БЎЛГАН ВАҚТ

Шу тариқа осмоннинг очилиши ва зулматни парчалаб ярақлаган кунни биринчи бўлиб Сичқон кўрди. Ундан кейин Сигир, Йўлбарс, Қуён, Балиқ, Илон, От, Қўй, Маймун, Товуқ, Ит ва Қобон бу манзараларнинг шохиди бўлди. Бечора Туя ухлаб, ҳамма нарсадан қуруқ қолди. Қуёш ҳам ўшанда пайдо бўлиб, Йил, Ой, Ҳафта, Кун шу вақтдан бошлаб санага киритилибди. Одам ва Ҳавони кутиб олишга чиққан ва бу воқеани кўрган ўн икки нафар ҳайвонни «йил эгаси», деб аташди. Мучал ҳисоби шу тариқа бошланган экан. Сичқон янги кун ва йилни биринчи бўлиб кўргани учун мучалнинг биринчи йилига унинг номи қўйилибди. Бу йил ҳисоби Одам Отадан ҳозиргача юришиб келинади. Кун пайдо бўлган вақт эса Йилбоши ёки Наврўз дейилади. Бу кунни Туронда одамзотдан қумурсқача барча жонзот байрам қилади. Арш (*ёки Тур*) қушининг қўноғи бўлгани учун Насаф ёнидаги ердан бағрини аранг кўтариб турган тоғ ўша замонлардан буён Қўнғир, яъни қўнадиган жой номини олган экан.

Йилбошида Турқут чақмоқ қиличи билан тириклик Қобқас атрофидан барча ёмонликларни қувади, яхшиликларга йўл очади. Ундан елини сутга тўлган Булутлар сурувини ҳайдаб киради. Улар заминга ҳаёт улашади...

Достон давом этаётганди. Уни тинглаётган шамоллардан бири кўз ўнгимда учқур ва асов Айғирга айланди. Қолганларидан бир сурув йилқи пайдо бўлди. Табиат жонланди. Гўё нимадир содир бўлиш арафасида эди. Ҳатто кўзларидан тинимсиз ёш қуйилиб турган мода Туя ҳам сергакланди.

* * *

Достон шу ерга етганда, мен эшитганларимни қоғозга тушираётганимда, тун бўйи дошқозонда қайнаган сумалак пишганди. Аёллар уни дастурхонга тортиш олдидан нуруний онахондан дуо тилашди. У озгин қўлларини ёйиб, оҳиста тиловат қила бошлади:

Илоё, халқимиз тинч, юртимиз обод бўлсин. Йилбошимиз – Наврўз заминга қут-барака келтирсин. Йигитларимиз Ватаннинг ҳақиқий таянчи бўлсин, ҳаётимиз қизларимиз ҳаёси ифори билан тўлсин, бирорта хонадонга ёмонлик доримасин...

**Абдусаттор ЖУМАНАЗАР,
Абу Райҳон Беруний номидаги
Шарқшунослик институти
катта илмий ходими**



ҚИРҚИНГИЗ ҚИЛИЧ

Алломалардан бири «Ватан тупроқда эмас – унга бўлган муносабатда», деб ёзғирганида хаёлидан нелар ўтгани Яратганга ва ўзига аён. Гапнинг дангали ҳам шу: биз кимни ёки нимани севишимиз унга бўлган муносабатимизда яққол сезилади.

Муносабат ҳам аслида турлича. Бефарқлик улар ичида энг хавфлиси экани «кўп ва хўп» айтилмоқда. Шу баҳона кўхна тарихни варақласак, бир-бирдан ажиб воқеалар кўз олдимизга келади. Бақувват илдизни кемираётган қуртлар ҳақидаги ҳикоялар ўз йўлига. Уларни мингта номи, миллионга сарлавҳаси бор. Аммо улар ичида бир иллат борки, авваллари ҳам, ҳозир ҳам унинг номи ўзгармайди. Аввал ҳам, ҳозир ҳам унинг кечирими йўқ. Бу – **хоинлик**.

Манбаларни варақлаймиз

– Эрамиздан аввалги 327 йили юнон фотиҳи Искандар Зулқарнайн биз яшаётган ерларга бостириб келганида бу минтақада қудратли Суғд давлати мавжуд эди. Қудратли Спитамен босқинчиларга қарши мардонавор кураш олиб борди. Умри бино бўлиб бундай қақшатқич зарбага учрамаган юнон шоҳи эсанкираб қолган ҳоллар кўп бўлган. Бироқ хоинлик юз бериб, Спитаменнинг боши ёвга тортиқ қилин-

ган. Мамлакатни эгаллаган душман шу тариқа Суғд давлатини қулатган.

Вақт ўтса-да, воқеалар такрорланишда давом этаверди.

– Қудратли хоразмийлар давлатининг таназзулига сабаб бўлган хоинлик – Маҳмуд Ялавочнинг сотқинлигини ёдга олинг. Қўйингки, Муқаннани сотган ҳам, Муҳаммад Раҳимхон (Феруз II)ни шармандали «Гандимиён» шартномасига имзо чекишга мажбур қилган ҳам... хоинлар эди.

Бу иллат, афсуски, ер юзининг барча нуқталарида бирлашиб яшаётган жамиятлар орасида ҳам ҳозиргача бор. Ҳар бир мамлакатда, ҳар бир дин вакилида бу қусур қайсидир кўринишда яшайди.

Яқин тарихимизнинг аччиқ ҳикояларидан бири «Олтовлон ва еттинчи»даги еттинчи киши хоин чиққанди. У олти элдоши ва Ватанини душманга жуда арзонга сотиб юборди ва ўзи ҳам бу қилмиши эвазига бир кун ҳам яшай олмади.

Жуда қадимий ва кўхна Исо Масих ҳақидаги ғамгин ҳикоянинг фожиаси ҳам сотқинликда намоён эди. Исо пайғамбар теграсида насроний динини

Афсуски, бир томчи оғу ўзидан 10 баравар кўпроқ сувда ҳам ўз кучини сақлаб қола олади. Бу иллат билан ҳар қайси замонда курашилган, ҳар қайси замон фузалолари уларни аёвсиз қаламга олган. Фитрат ўзининг «**Миррих юлдузига**» номли шеърида шундай ёзади:

*Борми сенда бизим каби инсонлар,
Икки юзли ишбузарлар, шайтонлар.
Ўртоқ қонин қонмай ичкан зулуклар,
Қардош этин тўймай еган қоплонлар?
Борми сенда ўксиз йўқсулнинг қонин –
Гурунглашиб, чоғир каби ичканлар?*

Бунда шоир «Қардош этин тўймай еган қоплонлар?» деганда ўз элдошларини сотган сотқинларни назарда тутмоқда.

Хўш, шу бир томчи оғуға қандай бас келиш мумкин? Жадидлар айтганидек, фақат ва фақат маърифат йўли билан. Маърифатнинг асоси эса ўқиб-ўрганишда.


Давлатимиз раҳбари кўплаб чиқишларида миллат ёшларини Ватанни севадиган фидойи инсонлар қилиб тарбиялашда китобнинг роли катта эканини таъкидлайди. Чиндан ҳам бизнинг теграимизда катта тарих, катта қаҳрамонлардан мужда берувчи, катта хулосаларни эслатувчи юзлаб китоблар бор. Халқ дostonлари шу санокнинг бош бўғинида туради.

Минг йиллик айтимларимиз одоб-ахлоқ, тарбия, ватанпарварлик, мардлик, муҳаббат ва оқибат, хиёнат ва жазо ҳақида сўзлайди. Демак, аввало дostonлар мутолааси биз учун муҳим поғонада турмоғи лозим.

Қай бир дostonни варақламанг, вафосизлик, сотқинлик, ёлғончилик охир-оқибатда катта хавфга айланиши, охир-оқибат инсонни бадном қилишига доир кўплаб мисолларга дуч келасиз.

«**Рустамхон**» дostonидаги бир лавҳани олайлик. Унда Оқтош вилотининг баҳодири Рустамхоннинг кундошлар тўхматига йўлиққан онаси Хуройимни жаллодлардан қутқариш йўлидаги жасурлиги ҳақида сўз боради. Отаси Султонхон подшо буйруғи

билан 300 жаллод томонидан онаси Хуройимнинг Мансур дорига ҳайдаб кетилганлигини эшитган ўн тўрт ёшли Рустамхон отни эгарлаб, жанг асбобларини олиб, икки тозисини йўлга солиб, жаллодлар кетидан қувлаб боради ва уларга қарши жангга катта ғайрат-матонат кўрсатади.



ёйишга бел боғлаган 12 нафар саҳоба (Исо Масих билан ҳисоблаганда 13 нафар) бор эди. Ўн учинчи саҳоба – Иуданинг хоинлиги туфайли Исо Масих Рим босқинчилари томонидан асир олинади.

Хоинлик – жон ширинида, маънавиятсизликда, юртсизликда юзага келади. Соҳибқирон Амир Темур бобомиз дуога қўл очиб: «*Ташқи душманларни ўзим эплайман, ички душмандан асра*», дея дуо қилганларида ҳам ҳикмат бор.



БИЛАН КЕЛИНГ...

Воқеалар ривожини кузатар экансиз, ҳар бир миллат кишиси ўз яқинлари, қадриятлари ҳимоясига маҳкам бел боғламоғи лозимлигини англайсиз.

Достоннинг асосий ғоявий йўналиши она юртга муҳаббат қўйиш, оддий кишиларга мурувват кўрсатиш, яхшилик қилиш, душманга нисбатан ғазаб ва нафрат билдириш, олижаноб эзгу ниятлар йўлида қатъият, довюрлик ва жасурлик кўрсатишни улуғлашдан иборат.

Ақсар достонларда қаҳрамонлар раҳмдиллиги, оққўнғиллиги сабаб турли ҳийлаларга алданиб, қийин вазиятларга тушиб қолади. Шундай бўлса-да, душман олдида эл-улусига гард юқтирмайди. Бора-бора, мардлиги, тўғрисўзлиги боис душманларидан ҳам аёвсиз ўч олади.

«**Кунтуғмиш**» достонида Азбархўжа ҳийла ишлатиб, Кунтуғмишни маст қилиб, хотини Холбекани подшоҳга тортиқ қилиб, болалари бошига оғир кунлар солган эди. Кун келиб, Кунтуғмиш тўра бўлиб, зиндонда ётган Азбархўжани олиб чиқиб, болаларига ўчларингни олинглар дейди.

Шунда Моҳибой билан Гўркибой бу мунофиқни босиб олиб, қўлидаги ханжар билан бақиртиб тилини кўмакайдан кесиб олади. Азбархўжа гапиролмай, хўкиздай бўкириб-бўкириб, итдай бўлиб ўлиб қолди. Гавдасини ўтда куйдириб, кулини шамолга учуриб юборди.

Бу жазо қайсидир маънода хоинга берилган «мукофот» эди. Бу йўлнинг охири шу. Бу йўл шармандали ўлимга олиб боришини ушбу достон китобхонга яхши англади.

Ота-боболаримизнинг куч-қудрати, мурувати, ҳатто душманга қаҳри ҳам достонларда

ўзига хос йўсинда битилган. Айниқса, юрт тинчлиги йўлида ҳормай меҳнат қилаётган ҳарбий хизматчилар учун достонлар ватанпарварликни оширувчи муҳим манба бўла олади.

Юрт ўғлонларининг майдондаги машқларига ҳеч эътибор қаратганмисиз? Кўпинча бир киши ўн киши билан ҳам бемалол жанг қила олади. Гоҳ қуролда, гоҳ билакда рақибини ер тишлатаётган ўғлонларнинг маҳоратига қойил қолмай иложимиз йўқ. Бир йигитнинг нафақат ўн, балки қирқ йигитга ҳам бас кела олиши достонларимизда яққол кўзга ташланади. Аслида бунинг ҳеч муболағали ери йўқ. Буни рост эканини исботловчи тарихий фактлар ҳам бор.

Хитой тарихчиси ўз асариде: «Агар бир киши бутун қўшинга қарши жангга кирса – бу шубҳасиз турқдир», деб ёзиб қолдирган.

Демак, бизнинг ичимиздаги ғужур ва шижоат, матонат ва мардлик ўйлаганимиздан ҳам улканроқдир. Буни унутишга ҳаққимиз йўқ.

Жангнома эпослардан бири бўлмиш «Юсуф билан Аҳмад» достониде ака-укаларни ҳийла билан қўлга тушириб, Мисрга олиб кетаётган бадрак Мирзо Мамадга тутқун Юсуф шундай деган эди:

– *Ҳийла билан олдингиз, қирқингиз қилич билан келинг, бизлар қўлимиз билан, бир томошани кўринг...*

Ҳақиқий ўзбек йигитининг матонати мана шундай жанг сахналарида ёрқинроқ кўринади. Достонда мард ва тоза виждонли бўлгани учун озод бўлган ака-укалар бутун бошли қўшинни шундай янчадики, ғанимлар «от юлган пахтадай кўкталоқ» бўлиб кетишади.

Мардлик ҳар доим ҳар ерда инсонни шаффа буркай олган. Бошлари дорда турган неча жўмардлар чин сўзи, ботирлиги сабаб озод бўлганига тарих гувоҳ.

«**Юсуф билан Аҳмад**» достониде Юсуфнинг Кўкча шоир билан айтишуви бор. Миср шоҳи Гўзалшоҳ айтишувда ютқизганни ўлдирмоққа ҳукм қилади. Шунда ҳам Юсуф уларнинг барча кирдикорларини, найрангларини аёвсиз фош қилади. Озод бўлса, бир от устига миносса Миср юртини ағдар-тўнтар қилишини рост айтади. Ҳатто подшонинг катта ваъдаларига ҳам учмайди. Динидан, эътиқодидан воз кечмайди. «Илоннинг қобиғи силлиқ бўлсаям ичи заҳар» дейди. Юзлаб жангчи, мирғазабларга қарата: «Биз келганда бўлаканиб қочарсан», дейди. Бу ҳақиқий эр йигитнинг сўзлари эди.

Айтишув якунида халқ ўз одамига оғиб, Кўкча шоирни ютди деса-да, аммо Гўзалшоҳ Кўкча шоирни ўзига қилган хушомади сабаб шарманда бўлганини айтиб, уни жаллодларга топширади.

Аслида жасорат куйланмаган, мардлик мадҳ этилмаган достоннинг ўзи йўқ. Энг асосийси, уларда марднинг боши доим сарбаланд, номард ва хоинларнинг эса юзи қора бўлиб, эл ичра шармисор бўлади.

Ана шу хулосанинг ўзи ҳам ҳар биримиз доим эсда сақлайдиган, амал қиладиган буюк ҳикматдир.



Катта лейтенант Бобур ЭЛМУРОДОВ,
«Vatanparvar» муҳбири.
Қуролли Кучлар академияси
мустақил изланувчиси



Алишер Алламуродов асли Сурхондарё вилоятининг Бойсун туманидан. Ўрта мактабни аъло баҳоларга битирган ёш навқирон йигитни тиббиётга бўлган кизиқиш, Тошкент педиатрия тиббиёт институти томон етаклади. У тиришқоқлиги ва интилувчанлиги туфайли олийгоҳда ҳам аълочи талабалар сафига кирди. Ҳа, гап инсонлар саломатлиги ҳақида кетар экан, бунда чуқур билим, тинимсиз ўқишсиз малакали шифокор бўлиб етишиш мушкул эканлигини яхши англаган Алишер доим излашида бўлди. Назарий ва амалий машғулотларда устозларининг сабоқларини чуқур ўзлаштиришга интилни. Ҳаш-паш дегунча талабалик даври ҳам ниҳоялай бошлади. Мана шу вақтга келиб, бўлажак шифокор келажакда тиббиётнинг қайси йўналишида фаолият юритиши бўйича бош қотира бошлади. Ва ниҳоят, у тиббиётнинг оғир соҳаларидан бири – анестезиология ва реанимация йўналишини танлади. Аслида Алишер бу йўналишни бекорга танламаган эди. Чунки у таҳсил давомида бир неча бор амалиётни шаҳар ва узоқ вилоятлар шифохоналаридаги жарроҳлик, ички касалликлар, туғуруқ бўлимларида ўтаганди. Мана шу даврда кўп мартаба анестезиология ва реанимация бўлимларида даволанаётган беморларнинг минг афсуслар бўлсинки, ўлим ҳолатларига гувоҳ бўлганди. Бундай кутилмаган ҳолларда кўпинча шифокорларнинг кўлидан ҳеч нарса келмасди. Бўлиб

МАСЪУЛИЯТНИ ШАРАФ БИЛАДИГАН ШИФОКОР

ўтаётган нохуш ҳолатлар бўлажак шифокорнинг юрагини гўёки «жунбишга» келтириб юборарди. Ана шундай вақтда реанимация шифокори бўлиб, оғир аҳволдаги беморларнинг ҳаётини сақлаб қолишни мақсад қилганди...

Ҳеч эсидан чиқмайди, тиббиёт институти битириш арафасида шифохонада ўтаган охири амалиётда ёши улғурок реанимация бўлими шифокори Алишердаги соҳага бўлган кучли кизиқишини пайқаб қолди.

– Сени кўпдан бери кузатяпман, – деди кекса шифокор. – Соҳамизга кизиқишинг кучлилигини билдим ва бундан хурсанд бўлдим. Бу соҳа инсондан жуда кўп билим, тажриба ва малакани талаб қилади. Шу талабларга жавоб берган шифокор, келажакда етук мутахассис бўлиб етишади. Лекин ёдингда бўлсинки, соҳамизнинг меҳнати анча оғир. Бунда инсонлар ҳаёти сенинг қўлингга бўлади. Биргина хатонг, бемор ҳаётига нуқта қўйиши мумкин. Бу нақадар оғир. Ёдингда бўлсин, тажрибали шифокорнинг кўлида беморлар ўлмайди. Чунки у ўлим билан олишаётган беморни оёққа турғизиш учун бор билимини ишга солади. Бунинг учун шифокорда билим ва маҳорат бўлиши зарур. Сезишимча бу йўналишда фаолият юритиш қўлингдан келади. Шундай қилиб устознинг бу сўзлари Алишернинг келажак йўлини танлаб берган эди...

У бир неча кундан сўнг институтга қайтди. Дарслари тугаши билан институтдаги устози тиббиёт фанлари доктори, профессор Анвар Алимовнинг ёнига борди. Бироз ийманиброқ кўнглидагиларни устозига айтиб, унинг бу борадаги фикрини билгиси келди. Кўпни кўрган профессор унинг сўзларини диққат билан тинглади ва охирида шундай деди:

– Сенинг бу соҳага кизиқишинг бежиз эмас. Мен сени яхши билман. Шунинг учун танловингни қўлаб-қувватлайман...

Институтни битириш сўнгидаги мутахассисларни бўлиш комиссияси



Алишер Алламуродовнинг билими, намунали хулқи ва реанимация соҳасига бўлган кизиқишини ҳисобга олиб, институт клиникасига ишга олиб қолди.

Шундай қилиб мутахассислик бўйича бир йиллик ўқишдан сўнг реаниматолог Алишер Алламуродов ўзи таҳсил олган институт клиникасида иш бошлади. У касбига масъулият билан ёндашарди. Шунинг учун тезда устозлар назарига тушди ва беморларнинг меҳрини қозонди.

Шифокор бир умр ўқишда, излашида, деган фикр ҳаётини ҳақиқат. Таъбир жоиз бўлса, бу гап Алишер сингари ўз касбининг фидойи инсонларига нисбатан айтилган бўлса, ажаб эмас. Ёш, серғайрат, тутган жойини кесадиган мутахассис доим илм чўққиларини кўзлади. Ўз устида тинимсиз ишлади. Шу билан бирга хорижий давлатларда ўз соҳаси бўйича малака оширди, замонавий билимларни ўзлаштирди.

У даврларда энди оёққа тураётган муваққил давлатимизда бошқа соҳалар қатори ҳарбий тиббиётга ҳам малакали мутахассисларга жуда эҳтиёж катта эди. Юрт юкига елка тутишни шараф деб биладиган қаҳрамонимиз ўз фаолиятини Мудофаа вазирлигига қарашли Марказий ҳарбий клиник госпиталда давом эттиради.

1995 йил январь ойи. Зудлик билан ҳарбий шифокорлар йиғилиши бўйича навбатчиликдан топшириқ тушди. Ҳамма йиғилди. Йиғилишда ўша пайтдаги Мудофаа вазирлиги ҳарбий тиббиёт бошқармаси бошлиғи

Анваржон Мелибоев Қарши ҳарбий госпиталида бир оддий аскар ичак тутилиши ва оғир перитонит билан ётгани, бемор бир неча бор операция қилинишига қарамасдан аҳволи ўта оғирлигича қолаётгани тўғрисида ахборот берди. Вазият жиддийлигини эътиборга олиб, тажрибали жарроҳ Шавкат Ачиловга тезлик билан у ерга етиб бориши ва ўзи билан билимли анестезиолог олиш топшириғи берилди. Шунда жарроҳ ҳеч иккиланмай Алишер Алламуродов билан Қаршига йўл олди.

Бемор ўн беш кунлик оғир операция ва парваришдан сўнг, Тошкентга олиб келинди. Бир ойлик машаққатли қаровдан кейин бутунлай оёққа турди ва ўз ота-онаси бағрига эсон-омон қайтди...

Алишер Алламуродов ҳарбий шифокор сифатида узоқ йиллар хизмат қилиб пенсияга чиқди. Шундай бўлса-да, ҳамон Мудофаа вазирлиги Марказий ҳарбий клиник госпиталида фаолият юритиб, билими, тажрибасини ёш шогирдлари билан ўртоқлашмоқда. Ҳа, у ҳақиқий фидойи инсон. Елкасига олган юки – Ватан ҳимоячиларининг саломатлигини сақлаш, юртига, миллатига хизмат қилиш масъулиятини бир умр шараф деб билди. Назаримизда, доимо ҳаётдан рози эканлиги, касбидан, оиласи, фарзандларидан ғурурланиши унга бу йўлда куч-қувват беради.

Баҳром МУРОДОВ,
тиббиёт фанлари номзоди,
жарроҳ

#Uchrashuv

Наманган ҳарбий прокуратураси ва Наманган давлат университети Ҳуқуқшунослик факультети билан ҳамкорликда очик эшиклар кунни тадбири ўтказилди. Унга бўлажак ҳуқуқшунослар таклиф этилди.

ҲАРБИЙ ПРОКУРАТУРАДА ОЧИҚ ЭШИКЛАР КУНИ



Учрашувда ҳарбий прокурор Д. Раҳмонов томонидан Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси органлари фаолияти, хизматга қабул қилиш талаблари юзасидан ҳуқуқий тушунчалар берилди. Шундан сўнг талабалар ҳарбий хизматчиларнинг хизмат фаолияти билан яқиндан танишдилар.

Қизиқарли ва мунозараларга бой руҳда ўтган тадбирда, талабалар соҳага оид ўзларини қизиқтирган саволларига жавоб олдилар.

Муҳаммаджон БОЗАРМИРЗАЕВ,
Наманган ҳарбий прокурорининг
ўринбосари



ЖАСОРАТ ҚОШИДА ЎЛМАГАН ИНСОН

Кимки ўз умрини Ватан хизматига боғлаган бўлса – у мангу яшашни уддалабди. Сурхондарё вилоятининг Термиз шаҳрида жойлашган 24-умумтаълим мактаби дарвозасидан билим олиш учун ҳар куни мингга яқин ўғил-қиз ташриф буюради. Улар ҳар гал шубҳасиз бир қаҳрамон бюстига бир кўз ташлаб ўтадилар.

Орадан 20 йилдан ошиқ вақт ўтдики, бу тупроқда марҳум сержант Мухиддин Эштемировни танимаган одамнинг ўзи йўқ. «Мард ўғлонлар номи барҳаёт» номли китобда қаҳрамон ҳақида шундай ёзилади:
«У Сурхондарё вилоятининг Термиз туманида туғилган. 1992 йилда Термиз давлат университетининг Тарих факультетини тамомлаган. 2001 йил май ойидан Мудофаа вазирлигига қарашли ҳарбий қисмда шартнома асосида хизмат қила бошлаган.

2001 йил 14 июлда Сарийосиё туманининг тоғли ҳудудларида олиб борилган жанговар ҳаракатларда қаҳрамонларча ҳалок бўлган».

Қаҳрамонимиз давлатимиз томонидан «Жасорат» медали билан тақдирланган. Бугун сержант Мухиддин Эштемиров таҳсил олган 24-умумтаълим мактабида Термиз гарнизони ҳарбий хизматчилари, вилоят мудофаа ишлари бошқармаси вакиллари, қаҳрамоннинг онаси Манзура ая Диллаева ва бир гуруҳ маҳалла фаоллари жам бўлишди.

Дарвоқе, Президентимизнинг жорий йил 19 январидagi «Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ҳамда «Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ва ёшлар масалалари бўйича идоралараро ҳамкорликни таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарорлари ижроси юзасидан ушбу таълим муассасаси Термиз гарнизонига қарашли ҳарбий қисмга бириктирилган бўлиб, қаҳрамон таҳсил олган синф «Ватанпарварлик хонаси»га айлантирилди. Шунингдек, бугунги кунда маҳалла, кўча номи Мухиддин Эштемиров номи билан аталиб, мактаб ҳовлисида унинг хотирасига бюст ўрнатилган.

Ўқувчилар ва фаоллар иштирокидаги хотира тадбири чин маънода жасорат дарсига айланиб кетди. Бу мактабда қаҳрамон акасининг изидан бориб, ҳарбий хизматчи бўлишни мақсад қилган ўнлаб болажонлар етишиб келаётгани барчани қувонтирди. Қаҳрамон бюсти ва «Ватанпарварлик хонаси» шундай жойки, бу муҳитдаги ҳар қандай киши ўзлигини, юртга бўлган бурчини теран англайди, юрагида шижоат уйғонади.

– Инсон юз ёшга кирса ҳам унутилиши мумкин, аммо Ватани учун жон бериб яшаган одамни асрлар ҳам унуттира олмайди. Ўғлим 26 ёшида қаҳрамон бўлди, барчанинг тилига тушди, юртига, оиласига буюк шон-шараф келтирди, – дейди марҳум Мухиддин Эштемировнинг онаси Манзура ая Диллаева. – Ҳар қандай она учун қаҳрамон ўғилнинг волидаси бўлиш улкан бахт. Мен бу қисматимга, ўғлимга берган оқ сутимга мингдан-миг розиман...

Ҳақ гап. Аслида бу мактаб аллақачон ёшларнинг ибрат ва жасорат манзилига айланишга улгурган. Бир қаҳрамон мардлигидан руҳланиб бу ердан қанчадан-қанча чемпионлар, ўз соҳасининг мутахассислари чиқмади дейсиз. Бу гуриллаган олов ҳали кўплаб дилларга ўт қақнатади, зиё улашади, мунавварлик бахш этади.

Б. ЭЛМУРОДОВ



Bahrom ABDURAHIMOV





Очахон момо ён қўш- ниси Қадрия холанинг уйига чиқмоқчи бўлиб кўча дарвозаси томон яқинлашган ҳам эдики, чопқиллаб кириб келган набираси Гуллолага дуч келди. Кўзлари қувонч- дан қулиб турган қизги- на бувисини кўрган заҳо- ти ниманидир орқасига беркитди. «Қақажонимда бир гап бор» хаёлидан ўтказди момо.

– Бувижон, сизга нима олиб келганимни биласизми? – мақтаниб, кўзлари ёниб, жилмайди қизалоқ.

– Сени шу қадар хурсанд қилган нарса нима экан, болам?

– Мана-а-а, – Гуллола кўлига тутамлаб олган бир тўп бойчечакни қувонч ила бувисига кўрсатди.

– Во-ой, баҳор даракчи- лари-ку, – набираси каби Очахон момонинг юзи шод- ликдан ёришиб кетди. Бой- чечакларни кўзларига суриб, яна бир кўклам насиб этгани учун шукроналар келтирди.

– Сиз учун ҳў-ў боғлар этагидан топиб келдим. Чи- ройли а, бувижон?

– Чиройли ҳам гапми, болагинам, кел, сени бир бағримга босай. Ўзимнинг меҳрибоним. Бу гулларни бил- ласанми ҳозир нима қиламиз, бемор ётган Қадрия бувингга олиб кирамиз.

– Улар бойчечакларни кўриб, соғайиб кетадими?

– Албатта, соғайиб кета- ди. Чунки бу гуллар оддий гуллар эмас, кўкламойнинг, Наврўзнинг сеҳрли элчилари. Уларга кўзи тушган бемор борки, касалини унутди.

– Бувижон, гапларин- гиз худди эртакка ўхшайди. Кўкламой ҳақида гапириб беринг.

– Аввал Қадрия бувинг- ни кўрайлик, кейин гапириб бераман. Фақат...

Кўшни меҳмонларни мо- монинг келини Бадрия опа қарши олди ва ичкарига таклиф этди. Очахон момони кўриб, Қадрия хола ёстиқдан

бош кўтаришга ҳаракат қилди. Бирок саксондан ошган бетоб онахоннинг бунга мадори етмади.

– Безовта бўлманг, ўртоқжон, ҳадемай оёққа туриб кетасиз, – салом-алиқдан сўнг буви-набира унинг олдидан жой олишди. – Мана, баҳор ҳам эшик қоқяпти, буёғи Наврўз. Кўклам неъматлари минг дардга шифо, дейдилар. Худо хоҳласа, дардларингиз орта қолади.

– Айтганингиз келсин, ўртоқжон! Бу йилги кўкламни кўриш насиб этармикан, деб ётибман-да.

– Албатта, кўрасиз. Набирамнинг ҳозир сизга берадиган алоҳида совғаси бор.

– Бувижон, сизни кириб келаётган баҳор билан табриклайман, – Гуллола бувиси билан келишиб олганидек, камзулчасининг ичига яшириб турган бойчечакларини чиқарди.

Қадрия холанинг хира тортган кўзлари ялтиллаб кетди, гўё.

– Нахот, қиш захми ортада қолиб, кўклам келган бўлса? Ўзига шукур, Ўзига шукур...

Онахон гулларни тавоф қилиш асносида ёстиқдан бош кўтаришга қайта-қайта ҳаракат қиларди. Шун- да Бадрия опа ёрдамга шошилди. Момонинг орқасига ёстиқлар кўйиб, ўтиришига кўмаклашди.

«Бувижон, ростдан ҳам баҳор гуллари сеҳрли экан», бувисининг қулоғига шивирлади Гуллола. Унинг сўзларини сал ўтмай, Бадрия опа тасдиқлади.

– Асал қизим, олиб келган гул- ларингиз сеҳр борми, дейман? Икки ойдан буён бош кўтармаган онамни турғизиб юборди-я. Бу ғайратида ҳадемай юриб кетади...

Буви-набира кўшни ҳовлидан хушнуд қайтишди.

– Бувижон, Қадрия бувимни кўриб чиқдик, энди кўкламой, Наврўз ҳақи- да гапириб берасизми?

– Албатта, қизалоғим, унда, сў- зимни бўлмай эшит. Сенга эналари- миздан қолган ривоятларни айтиб бе- раман. Қишнинг охири, март ойининг бошларида «Тўқсо-он, бир кунимча йўқсан!» деб Аямажиз момо изгирин ва совуқларни олиб келади. Уни Ажуз момо деб ҳам аташади. Ривоятларда айтилишича, момонинг тўқсон нафар ўғли бўлиб, ҳар бири қишнинг бир кунига эгалик қиларкан. Қиш яхши келмаса, кампиршонинг жаҳли чиқиб кетаркан. Совуқ қандай бўлишини кўрсатиб кўйишга ҳаракат қиларкан. Шунинг учун баҳор келди, деб асло юпун кийиниб бўлмайди.

– Шу сабаб, «куннинг илиганига ишонма, қалин кийиниб ол», дер экансиз-да, бувижон?

– Худди шундай, қизим! Кўкламой эса мана шу қиш қаҳрини энгиб, мудраб ётган дарахтлару ўт-ўлан- ларни сеҳрли нафаси билан уйғотиб,

баҳорни бошлаб келади. Дов-дарахт- лар ва еримизни гулларга, кўм-кўк майсаларга буркайди. Беморларни неъматлари билан оёққа турғизади.

– Қандай неъматлар, бувижон?

– Баҳорнинг илк неъматлари бой- чечак, чучмома, ялпизлар ҳисобла- нади. Уни кўрган одам борки дили яйрайди, руҳий қувват олади. Кейин баҳорда бош кўтарган майсалар са- лавот айтиб, заминга, тирик жонга омонлик тилаб унар экан. Улардан тайёрланган кўксомса, кўкчучвара, сумалак ва ҳалим каби таомларнинг шифобахш сеҳри бор, дейишади. Бундан ташқари, момоларимиз йил- боши, яъни Наврўз сайлида етти ёки тўққиз хил дондан – буғдой, нўхат, маккажўхори, мош... каби зироат- лардан солиб, йилгўжа номли таом тайёрлашган. Катта дошқозонларда йилда бир маротаба пиширилган бу азиз неъматдан сайилнинг барча иштирокчиси у бойми, камбағалми, амалдору хизматқорми, бир сўз билан айтганда, шоҳу гадо бирга тановул қилган. Бу эл-улуснинг меҳр-оқибатли, хайр-саховатли, бағрикенг ва тенг ҳуқуқли эканини намойён этган.

– Бувижон, нима учун Наврўзни йилбоши, дейишган?

– Ўзимнинг доно қизим, ҳозир бу ҳақда ҳам гапириб бераман. Йилбо- ши дейилишига сабаб, Наврўз кун билан туннинг тенг келган палласи ҳисобланади. Аждодларимиз янги йилни айнан шу кундан ҳисоблашган ва янги йил, яъни йилбоши сифа- тида нишонлашган. Барча чиройли анъаналарни юзага чиқаришган, ўйин-кулгилар қилишган. Беморлар ҳолидан хабар олинган, аразлашган- лар ярашган. Наврўз сайлида ошпаз- лар, қандолатчилар, новвойлар, машшоқлар, масхарабозлар, дорбоз- лар... барча ҳунаро аҳли ўзининг бор маҳоратини намойиш этган. Кўпқари ва полвонлар кураши бўлган.

Бундан ташқари, давра куриб, кўчқор ва хўроз уриштиришган. Буни гўёки қиш билан кўкламнинг ўзаро беллашуви деб билишган. Дехқонлар эса ёши улуглар ва сайил аҳлининг дуоси остида мўл ҳосил тилаб, ерга уруғ қадаган. Шу кун туғилган чақ- лоқларга, албатта Наврўз ва Наврўза исмлари қўйилган. Уларнинг толеи баланд бўлади, деб ҳисоблашган. Оила кўрмоқчи бўлган ёшлар эса байрам иштирокчилари гувоҳлигида унаштирилган. Наврўз айёми кунни ҳамма бир-бирига совға-саломлар, ширинликлар улашган.

– Ассалому алайкум, бувижон!

Очахон момо ёнгинасида қулиб турган катта набираси Саломатни кўриб, ҳайратини яширмади:

– Қачон келдинг, қизим? Кириб келганингни сезмабмиз ҳам. Синг- лингга Наврўз ҳақида гапириб бе- раётганим.

– Эшитдим, бувижон, бугун ўқи- тувчимиз ҳам Наврўз билан боғлиқ қадим афсоналарни сўзлаб берди.

– Қандай афсоналар экан, қани, бизгаям айтиб бер-чи, болам?

– Барчасини дафтаримга ёзиб ол- ганман, – сумкаси ичидан дафтарини олишга шошилди Саломат. – Ҳозир бир бошдан айтиб бераман. Туркий мифологияда илк Одам баҳорда яралган деган қараш мавжуд бўлган. Мазкур нуқтаи назар кейинчалик ис- ломий кўриниш олган. Шу тарзда му- сулмон оламининг бир бўлаги бўлиб яшай бошлаган Йилбоши – Наврўз билан боғлиқ ривоятлар шаклланган. Мана, эшитинглар:

Худо Ерни 21 март кунни яратган. Ҳазрати Одамнинг хаамири ҳам шу кунни қорилган.

Шайтоннинг гапига кириб, ман қилинган мевани еб қўйган Одам Ато ва Момо Ҳаво жаннатдан қуви- либ, бири Сарандип (*Шри-Ланка*) оролига, иккинчиси эса Жиддага туширилган. Айбларига пушаймон бўлгач, Худо уларни афв этиб, 21 март кунни Арофатда учраштирган.

Буюк тўфон пайти қалдирғоч оғзида яшил новда билан кемага қайтгач, кўкламнинг келгани ва тупроқнинг қуриганини англаган Нуҳ алайҳиссалом шу кунни ерга оёқ қўйган.

Юнус алайҳиссалом балиқ қор- нидан халос бўлган кун – Наврўз айёми эди.

Ака-укалари томонидан қудуққа ташланган ҳазрати Юсуфни бир тужжор 21 март кунни қутқарган.

Мусо алайҳиссалом Наврўз кунни асоси билан Қизил денгизни ёриб, қавмини фиръавн зулмидан омон сақлаб қолган.


– Барчаси афсонага сингдирилган қизиқарли маълумотлар а, бувижон?

– Жуда қизиқарли. Э-эх, қизим, бу Наврўзимизнинг қай даражада азиз айём эканлигидан далолат, – наби- расининг гапларидан дили яйраб кетди Очахон момонинг. – Наврўз билан боғлиқ афсоналар, анъаналар ҳақида қанча гапирсак, шунча оз. Ёдимга тушса, яна гапириб бераман. Минг шукурки, мустақиллигимиз ша- рофати билан Наврўзимиздаги эзгу одатлар бағримизга қайтди. Байрам анъаналарини янгича тарзда чирой- ли нишонлаяпмиз. Мана шу байрам сабаб, қадим қадриятларимиз дунёга юз очмоқда.

– Унда мен ҳам барчага совға тай- ёрлаб, Наврўз кунни бераман. Негаки, бу энг-энг яхши байрам. Шундайми, бувижон?

– Шундай, қизгинам, Наврўз қа- дим қадриятларимизнинг жавоҳири. Буни асло унутманглар, болаларим!

Зулфия ЮНУСОВА,
«Vatanparvar»



O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Dang'ara tumani O'STKda imtiyozli ravishda haydovchilik kasbiga o'qitilayotgan "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" hamda "Temir daftar"da ro'yxatda turuvchi fuqarolarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish maqsadida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari va tanlovlarni o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Shunday tadbirlardan biri "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" shiori ostida "Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning o'rni" mavzusida bo'lib o'tdi.

YANGILANAYOTGAN JAMIYATDA YOSHLARNING O'RNI

Tadbirda Ma'naviyat va ma'rifat markazi Dang'ara tumani bo'linmasi boshlig'i Lutfulla Xusanov ishtirok etdi. U o'z so'zida yosh avlodning, ta'lim-tarbiyasi, jamiyat hayotidagi o'rni haqida gapirar ekan, har jihatdan barkamol avlod mamlakat ertasini belgilashini, shuning uchun ham keyingi yillarda yurtimizda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va shu orqali ularda Vatan taqdiriga nisbatan daxldorlik tuyg'usini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar xususida ma'lumot berdi. Inson o'z kelajagi uchun yoshlikdan tamol toshini qo'yishini hayotiy va ta'sirchan misollar orqali tushuntirdi.



Qizg'in bahs-munozaraga boy o'tgan uchrashuv davomida yig'ilganlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi.

Sherzod IMOMALIYEV,
Dang'ara tumani
O'STK rais o'rinbosari

G'AFUR G'ULOMNING "AFANDISI"



Kulgi umrni uzaytiradi, deydi. Bu hayotiy haqiqatni ijodiga ham mahorat bilan singdirgan atoqli adibimizdan biri G'afur G'ulomdir. U o'z asarlarida folklor an'anasiga ko'p bor murojaat etgan. E'tibor bersangiz, adibning hikoyalardan tortib qissalarigacha kulgi elementlari ko'zga yaqqol tashlanadi. Hayotda ham tabiatan xushchaqchaq, nozikta'b, hozirjavob bo'lgan yozuvchi xalqning latifa, lof, askiya va qochirmlarini yaxshi ko'rgan. Shuning uchun ham ijodkor hikoya va qissalarida ularga tez-tez murojaat qilingan. Xususan, G'afur G'ulomning "Hiylayi shar'iy", "Afandi o'lmaydigan bo'ldi", "Hasan Kayfiy", "Latifalar" kabi qator asarlari borki, ularda goh ayyorona, kesatliq satirik, goh yengil, quvnoq yumoristik kulgi jaranglaydi. Nomi sanab o'tilgan hikoyalarda kulgining bunday ko'rinishlari ba'zan to'g'ridan to'g'ri o'zbek latifalari qahramoni Xo'ja Nasriddin Afandi tomonidan, ba'zan uning xarakteridagi insonlar tomonidan yuzaga chiqariladi. Ya'ni ijodkor Afandi obrazidan jamiyat hayotidagi, odamlar xarakteridagi turli zararli illatlar ustidan kuladi ularni tanqid qiladi.

Adibning Afandi obrazini gavdalandirilgan latifalaridan biri "Oxurga ketyapman..." asaridir. Unda aytilishicha, yomonlik qilishdan lazzatlanmay qolgan xon, shoirlikni havas qilib g'azal mashq qila boshlabdi. Necha kun ovvora bo'lib, poyma-poy, mazmunsiz she'r yozibdi. Uni ayondagi vazir-u vuzarolarga o'qib beribdi. Ular xonning poyma-poy qofiyali, mazmunsiz she'rini ko'klarga ko'tarib maqtabdilar. Bu maqtovlarga ishonqiramagan xon "haq gapni aytuvchi" Afandini huzuriga chaqirib, undan "she'rning haqiqiy bahosi"ni bilmoqchi bo'libdi. Afandi esa she'r haqida o'zining keskin fikrini qo'rqmay aytibdi. Bunday kutilmagan javob xonning g'azabini keltiradi va bu shakkokni otxonaga bog'lab, oxurda ovqat berishlarini buyuradi. Ammo xonning shoirlik havasi sovumabdi. Bir haftacha unnab, o'n to'rt yo'llik bir g'azal yozibdi. Saroydagilarga o'qib bergan ekan, hammayoqdan ohu-uh, tasanno, ofarin degan maqtovlar eshilibdi. Shunda xon yana Afandining munosabatini bilmoqchi bo'libdi. Afandi g'azalni ichida o'qib chiqib, qaytarib xonga topshiribdi-da, orqasiga o'girilib keta boshlabdi. Xon uni to'xtatmoqchi bo'lib: "To'xtang, Mulla Nasriddin, qayerga ketyapsiz? Axir g'azal to'g'risida fikringizni aytib keting", debdi. Afandi esa: "Qayerga ketar edim. Yem-xo'rak vaqti bo'ldi. Oxurga ketyapman", deb javob bergan ekan...

Sharqda she'r va shoirlik hamisha ulug'langan. Bu latifa orqali G'afur G'ulom o'z davrida iste'dodi tufayli qadri toptalgan, hayotiga nuqta qo'yilgan, besabab qamalagan yoki qatag'on qilinib, otib yuborilgan shoir-u yozuvchilarga achinish hissini ham yashirin ifoda etadi.

Ha, xalq og'zaki ijodida birgina Afandi obrazigina ana shunday serqirra fosh etuvchi obraz sifatida ko'zga tashlanadi. Afandi to'g'risida, haqiqatga o'y, jamiyatdagi illatlar ustidan kuluvchi qahramon sifatida gavdalandiriladi. Shuning uchun ham G'afur G'ulom ijodida Nasriddin Afandi haqidagi latifalar, kichik hikoyalar qiziqarliligi va real hayotga yaqinlashtirilgani bilan alohida e'tirofga sazovor.

Malohatxon XO'JAYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

#Yong'in xavfsizligi

#Yashil makon

GAZ USKUNALARIDAN FOYDALANISHDA...

Tabiiy va is gazidan zaharlanishining oldini olish uchun qator tadbirlar bajarilishi zarur. Avvalo, isitish moslamalari hamda tutun mo'rilarini shamollatish kanallarini viloyat hududiy Yong'inga qarshi kurash jamiyati va uning bo'limlari tomonidan ko'rikdan o'tkazishni ta'minlang.



Shuningdek, quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- O'zboshimchalik bilan uy (kvartira, bog'dagi uy)ni gazlashtirish, gaz asbobi o'rnini almashtirish, uni yangilash va tuzatish;
- gaz asboblari o'rnatilgan xonalar rejasini o'zgartirish;
- gaz asboblari konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritish;
- dudburon va shamollatish tizimlarini o'zgartirish;
- shamollatish kanallarini to'sib qo'yish, dudburonlarni tozalash "cho'ntaklari" va darchalarini berkitish. Dudburon va shamollatish kanallarining tekshirilganligi hamda tozalangan to'g'risidagi dalolatnomaning muddati tugagan hollarda gazdan foydalanish;
- fortochkalar (framugalar), jalyuzali panjaralar, shamollatish kanallarining panjaralari, vannaxona va oshxona eshiklari ostidagi tirqishlar yopiqligida, dudburon hamda shamollatish kanallarida tortish bo'lmagan hollarda gazdan foydalanish;
- xonada gaz hidi sezilganda, elektr uskunalarini yoqish yoki yoqilgan bo'lsa o'chirish.

Yong'indan sinilnaya kislota foslen va boshqa zaharli gazlar ajraladi, havodagi kislorod miqdori esa kamayadi. Shuning uchun ham alangadan ko'ra, undan chiqayotgan tutun va kuyindilar xavfliroqdir.

Unutmang! Doimiy ravishda va ayniqsa, isitish mavsumi boshlanishidan oldidan pechlar, qozonxonalar, suv isitish kolonkalarining sozligi, mo'rikonlarining tozaligi tekshirilishi shart. Bolalar va imkoniyati cheklangan kishilarni nazoratsiz qoldirmang. Shuningdek, nosoz, nostandart, qo'lbola isitish va gaz moslamalaridan, tabiiy gazdan foydalanishda turli xildagi rezina shlanglar, gaz so'rg'ichlardan, xorijda ishlab chiqarilgan isitish moslamalaridan yo'riqnoma bilan tanishmasdan aslo foydalanmang.

Podpolkovnik Zokir KENJAYEV,
Toshkent garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi boshlig'i

Shu kunlarda yurtimizdagi barcha tashkilot va muassasalarda diyorimizni bundan-da obod qilishga va ko'kalamzorlashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi tadbirlarda Vatan himoyachilari ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqda.

500 DAN ORTIQ KO'CHAT EKILDI



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi harbiy xizmatchilari tomonidan ham hududlardagi yo'l va ariq bo'ylari, bo'sh turgan joylarni ko'kalamzorlashtirish, yangi bog'larni yaratish hamda yashil hududlarni kengaytirish maqsadida "Yashil makon" umummilliy loyihasi asosida 500 dan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.

Bu kabi amalga oshirilayotgan obodlik tashabbuslari nafaqat atrof-muhit musaffoligi, balki xalqimizga xos bo'lgan azaliy qadriyatlar tinchlik-farovonlik, o'zaro mehr-oqibat, ko'ngillar obodligini ta'minlamoqda.

Yurt o'g'lonlari Vatanni himoya qilish bilan bir qator, tabiatimizni ham asrab-avaylashga o'zlarini munosib hissalarini qo'shmoqdalar. Bu kabi tadbirlar yurtimizning chiroyiga chiroy qo'shishi bilan birga atrof-muhitni toza havo bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi...

Kichik serjant Bahromjon USMANOV

“MUSOBAQALAR SERIYASI” DAN

Tarkibining asosiy negizi Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillaridan iborat bo'lgan taekvondo WT bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari Eronda o'tkazilgan xalqaro "musobaqalar seriyasi"da qatnashdi va ajoyib yutuqlarga erishib, shoda-shoda medallar bilan qaytishdi.

Eronning Tehron shahrida taekvondo WT bo'yicha uchta xalqaro musobaqa – 4–5-mart kunlari klublar o'rtasida Osiyo chempionati, 6–9-mart oralig'ida an'anaviy "Fajr Open" turniri, 10–14-mart kunlari "Osiyo taekvondo federatsiyasi prezidenti kubogi" bahslari tashkil etildi. O'zbekiston terma jamoasi ushbu musobaqalarda qatnashish uchun Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazining tajribali mutaxassisi Pavel Xan bosh murabbiyligida 19 nafar yetakchi sportchisi bilan Eron sari yo'l olgan edi. Ularning dastlabkisi – klublar o'rtasidagi Osiyo chempionatida taekvondochilarimiz 3 ta oltin va 4 ta bronza, jami 7 ta medalni qo'lga kiritganligi xususida gazetamizning oldingi sonida xabar bergan edik. Keyingi ikki musobaqada ham vakillarimiz muvaffaqiyatli qatnashdi.

"Fajr Open" xalqaro musobaqasining dastlabki kungi bahslarida O'zbekiston terma jamoasining ikki nafar vakili ishtirok etdi. –53 kg vazn toifasida Charos Qayumova finalga qadar yetib bordi va hal qiluvchi bahsda eronlik Naxid Kiyanchandexga 6:7 hisobida yutqazib qo'yib, kumush medal sohibiga aylandi. Ozoda Sobirjonova (–62 kg) ham finalga chiqib, so'nggi jangda eronlik Kosar Asasexga imkoniyatni boy berdi va kumush medal bilan taqdirlandi.

Ertasi kuni dayanga chiqqan MVSM vakili Svetlana Osipova yurtimiz sport muxlislariga yanada cheksiz quvonch baxsh etdi. Bir necha kun oldin klublar o'rtasidagi Osiyo chempionatida +73 kg vazn toifasida kuchli uchlikka kirgan sportchimiz bu safar barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratdi va oltin medalga sazovor bo'ldi. Hal qiluvchi bahsda taekvondochimiz eronlik Zaxra Pouresmailkarani ustidan 4:0 hisobida g'alaba qozondi. Svetlananing ushbu g'oliblik yurishini ertasi kuni Shuhrat Salayev (–80 kg) davom ettirdi. Barcha raqiblarini ajoyib texnikasi va g'alabaga bo'lgan ishtiyoqi bilan dog'da qoldirgan hamda musobaqada shu jihatlari bilan e'tibor qozongan taekvondochimiz g'oliblikka erishdi. Finalda hamyurtimiz eronlik Muhammad Hussayin Yazdanini 15:11 hisobida mag'lubiyatga uchratdi. –54 kg vazn toifasidagi taekvondochimiz Jahongir Xudoyberdiyev esa, aksincha, aynan mezbonlar vakiliga final bahsida imkoniyatni boy berib, kumush medal bilan kifoyalandi.

Eronda 10–14-mart kunlari o'tkazilgan uchinchi musobaqa – "Osiyo taekvondo federatsiyasi



SHODA-SHODA MEDALLAR

prezidenti kubogi" bahslarining asosiy qahramonlari ham bugungi kunda yurtimiz taekvondosining "yorqin yulduzlari bo'lib porlagan" MVSMning ikki vakili – Svetlana Osipova va Ulug'bek Rashitov bo'ldi.

Svetlana Osipova bu musobaqada ham barcha raqiblarini mag'lub etib, yana bir bor chempionlik nashidasini surdi. Shuni alohida ta'kidlash joiz, +73 kg vazn toifasi bo'yicha final bahsida ikki nafar o'zbekistonlik sportchi Iroda Mirtadiyeva va Svetlana Osipova o'zaro to'qnash keldi. Yarim finalda jarohat olgan Mirtadiyeva hal qiluvchi jangda ishtirok eta olmasligini ma'lum qildi va kumush medal sohibiga aylandi. Osipova esa oltin medalni qo'lga kiritish bilan birga "Tehronda o'tkazilgan musobaqalarning eng yaxshi sportchisi" nomiga ham sazovor bo'ldi. Bu MVSM vakilining joriy mavsumdagi xalqaro musobaqalardagi 4-sovrinidir. Svetlana fevral oyining boshida BAAning Fujayra shahrida o'tkazilgan nufuzli musobaqa – "Fujairah Open – 2022"da ham g'oliblikka erishgandi, Tehronda esa bitta bronza va 2 ta oltin medalga egalik qildi. Demak, so'nggi 2 oy ichida maksimal reyting ochkolariga ega bo'lgan sportchimiz yangi reytingda ham o'z o'rnidan keskin yuqorilashi aniq.

O'z vazn toifasida reytingda ham peshqadamlik qilayotgan MVSM vakili Ulug'bek Rashitov esa mavqeyini yanada mustahkamlab oldi. Chunki Tehron shahridagi dastlabki musobaqada g'oliblikka erishgan taekvondochimiz "Osiyo taekvondo federatsiyasi prezidenti kubogi" bahslarida ham oltin medalni qo'lga kiritdi. "Tokio – 2020" yozgi Olimpiya o'yinlari chempioni finalga boshqa bir hamyurtimiz Diyorbek Tuxliboyev bilan birga yetib keldi. Biroq –68 kg vazn toifasidagi bu final jangi o'tkazilmadi va MVSM vakili oltin, Tuxliboyev kumush medal sohibiga aylandi. Xuddi shu vazn toifasida yurtimiz sportchisi Najmiddin Qosimxojiyev bronza medalga ega chiqdi.

Yana bir qiziqarli fakt, Ulug'bek Rashitov o'zi ishtirok etib kelayotgan xalqaro musobaqalarda ketma-ket g'oliblikka erishyapti, xususan: "Osiyo taekvondo federatsiyasi prezidenti kubogi" (Eron, 13-mart 2022-yil), klublar o'rtasida Osiyo chempionati (Eron, 5-mart 2022-yil), "Fujairah Open – 2022" (BAA, 11-fevral 2022-yil), "Tokio – 2020" yozgi Olimpiya o'yinlari (Tokio, 25-iyul 2021-yil), "Tokio – 2020" litsenzyon musobaqasi (21-may 2021-yil), "Turkish Open" (Turkiya, 10-mart 2021-yil).

"Osiyo taekvondo federatsiyasi prezidenti kubogi"ning ayollar o'rtasidagi bahslarida terma jamoamizning yana uch nafar vakili sovrindor bo'ldi. Hamyurtimiz Charos Qayumova –53 kg vazn toifasi bo'yicha bahslarda bronza medalni qo'lga kiritdi. –62 kg vazn toifasi bo'yicha esa ikki sportchimiz yarim finalga qadar muvaffaqiyatli odimladi. MVSM vakili Feruza Sodiqova ushbu bosqichda eronlik Seyedex Nargisga 5:6 hisobida imkoniyatni boy berib qo'ygan bo'lsa, Ozoda Sobirjonova ham aynan yarim finalda eronlik Kosar Asasexdan 22:24 hisobida mag'lub bo'lib, bronza medalni bilan kifoyalandi.

Musobaqaning erkaklar o'rtasidagi bahslarida MVSM vakillaridan yana uch nafari sovrindorlar safidan joy oldi. –63 kg vazn toifasidagi tajribali sportchimiz Niyaz Po'latov finalgacha muvaffaqiyatli yetib bordi. Biroq eronlik Zaid Alxalvaniga qarshi hal qiluvchi bahsda imkoniyatni boy berib qo'ydi va 2018-yil Indoneziyada o'tkazilgan Osiyo o'yinlaridagi kabi kumush medal bilan cheklandi. –74 kg vazn toifasida dayanga chiqqan MVSM vakili Jasur Jaysunov esa yarim finalda eronlik Mirhoshim Hussayniga yutqazdi va bronza medalni bilan kifoyalandi. Shuningdek, yarim finalgacha muvaffaqiyatli odimlagan 2018-yilg Osiyo o'yinlari g'olibi, 2018-yilg Osiyo chempioni Nikita Rafalovich (–87 kg) ham o'zining so'nggi vaqtlardagi an'anasiga sodiq qoldi – klublar o'rtasidagi Osiyo chempionatidagi kabi shohsupaning uchinchi pog'onasiga ko'tarildi.

Taekvondochilarimiz 4–14-mart kunlari Eronda o'tgan uchta xalqaro musobaqada 7 ta oltin, 6 ta kumush va 11 ta bronza, jami 24 ta medalga sazovor bo'lishdi.

Erondan qaytgan sportchilarimiz Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida munosib kutib olindi. Marosimda O'zbekiston taekvondo WT assotsiatsiyasi mutasaddilari, sportchilarning yaqinlari va OAV xodimlari ishtirok etdi.

SHOHSUPA

(xabarlar)



DZYUDO



Xalqaro dzyudo federatsiyasi (IJF) rasmiy saytida bildirilishicha 6–12-oktabr kunlari Toshkent shahrida o'tadigan jahon chempionatiga bir qator mamlakat terma jamoalari tayyorgarlikni hozirdan boshlashdi. Poytaxtimizda ilk marta tashkil etiladigan musobaqada sayyoramizning eng kuchli dzyudochilari qatnashadi. Tarkibida MVSM vakillari ham bo'lgan dzyudo bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi esa shu kunlarda Chexiyada o'quv-mashg'ulot yig'inini o'tkazmoqda. Murabbiylar shtabiga yangi qo'shilgan xorijlik mutaxassis Marko Shpitka qo'l ostidagi mazkur yig'in oy yakunida Turkiyada o'tadigan Antalya "Katta dubulg'a" turniriga tayyorgarlik vazifasini ham o'tab beradi.

BOKS



Iordaniyada o'tkazilgan yoshlar va o'smirlar o'rtasidagi qit'a chempionatida yurtimiz boksining kelajagini belgilovchi charm qo'lqop ustalari ajoyib muvaffaqiyatga erishdi. Musobaqada 49 nafar bokschi bilan ishtirok etgan O'zbekiston delegatsiyasi yakunda 46 ta medalni qo'lga kiritdi. Yosh yigitlarimiz 7 ta oltin, 3 ta kumush va 2 ta bronza medalni jamg'argan bo'lsa, qizlarimiz ushbu musobaqani 2 ta oltin, 7 ta kumush va 2 ta bronza medal bilan yakunlashdi. O'smirlarimiz o'z aka va opalaridan ortda qolishmadi – 11 oltin, 6 ta kumush, 6 ta bronza, jami 23 ta medalga egalik qilishdi. Osiyo chempionatida medallar jamg'arishda ham, oltin medallar soni bo'yicha ham O'zbekiston birinchi bo'ldi.

SAMBO



AQShning Kaliforniya shtatida bo'lib o'tgan "Arnold klassik" Butunjahon multisport festivalining sambo bo'yicha turnirida yurtimiz sportchilari sovrinli o'rlnlarni egalladi. Jumladan, Elyor Serikbayev, Muhammadnozim Shukurov, Jamoliddin Qurbonov va Sherbek Ro'ziyev chempionga aylanishdi. Musobaqada chiroyli usullari bilan muxlislar olqishiga sazovor bo'lgan Sherbek Ro'ziyev "Festivalning eng yaxshi sportchisi", deb topildi va maxsus sovrin bilan taqdirlandi.

PROFESSIONAL BOKS



Poytaxtimizdagi "Yunusobod" sport majmuasida professional boks bo'yicha Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan "AFP-1" turniri tashkil etildi. 10 juft bokschi ishtirokidagi reyting janglarida Asrorbek Rahimov, Jonibek Norqobilov, Islombek Mo'minov, Bekzod Qodirov, Ozodbek Majitov, Jamshid Rixsiyev o'z vaznlarida g'oliblikka erishdi. Bekzodbek Isadullayev va Abbosxon Yo'ldoshev o'rtasida kechgan 6 raundlik jangda durang qayd etildi. 72 kg og'irlikda ozarbayjonlik Ali Mamedov hamda hamyurtimiz Bahrom Fozilov ishtirokida 10 raundga mo'ljallangan jang 2-raundda referi tomonidan to'xtatildi. Hamyurtimiz ozarbayjonlik bokschini texnik nokaut evaziga mag'lubiyatga uchratdi. 69 kg vazn bo'yicha Mirzakamol Ne'matov – Zurab Chaniyev (Rossiya) o'rtasidagi 10 raundlik "duel" ham Ne'matovning kuchli zarbalariga dosh berolmagan rossiyalik bokschini sekundantlari tomonidan 6-raunddan so'ng to'xtatildi. Boks oqshomining markaziy jangida Nursulton Ro'ziboyev ilk marta katta ringga chiqishiga qaramasdan professional boksda 39 ta jang o'tkazgan boshqa bir hamyurtimiz Bahrom Payozovni 2-raundda texnik nokautga uchratib, g'alabaga erishdi.

Rasul JUMAYEV,
«Vatanparvar»



BAHOR

*Bahor kelmoqdadir qarang, do'stlanim,
Chakkasiga gul-u lolalar taqib.
Samo ham shodlanar to'lg'anib sim-sim,
Bag'ida zangori chaqmoqlar chaqib.*

*Bahorim, sen o'zing kelmaysan yolg'iz,
Birga kelmoqdadir Navro'zi olam.
Ta'rifing bitishga o'jizdir bir so'z,
Go'zalliging ko'rib quvonar olam.*

*Beqiyos chiroyini qaydan olgansan?
Sehr-u sinoating o'rgat bizlarga.
Qir-u adirlarga seping yoygansan,
Jamolingdan bergin lo'bar qizlarga.*

*Quvonmagan odam qolmagay bunda,
Kirib kelganingda eshiklar qoqib.
Barcha latofating ko'z-ko'zlab shunda,
Kelasan dillarga orzular yoqib.*

Yorqinoy SATTOROVA,
Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani,
5-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Bahor. Uning qutlug' tashrifini sog'inib kutmagan inson bo'lmasa kerak. Qir-adirlar yam-yashil libos kiyganda ko'zlarimiz yashnaydi. Beixtiyor tog'-yonbag'irlariga chiqishni, to'yib-to'yib nafas olishni qo'msaydi kishi. Ayniqsa, bahoriy taomlarimiz sumalak, halim, ko'ksomsa-yu ko'kchuchvaralar jonimiz quvvati.

Gazetamizning bu galgi sonida biz milliy taomlarimiz bilan bir qatorda turli millatlarning mashhur taomlari retseptini siz uchun saraladik. Bugungi bayram dasturxonini tuzashda bu retseptlar sizga qo'l keladi, degan umiddamiz.

TURKCHA
PAXLAVA

Kerakli masalliqlar:

suv – 500 ml (250 ml xamiri, 250 ml sirop uchun)

un – 3,5 st

tuxum – 1 dona

o'simlik yog'i – 3 osh qoshiq

kartoshka kraxmali – 1 st

sariyog' – 400 g

yong'oq xohlagan turdagi – 400 g

shakar – 350 g (100 g nachinkasi, 250 g sirop uchun)

asal – 2-3 osh qoshiq

tuz – 1 choy qoshiq

Tayyorlanish jarayoni:

- Yong'oqni tozalab, maydalang.
- Tuz, tuxum, suv va o'simlik yog'ini aralashtirib, unga solib xamir qorib, 1 soat davomida tindiriladi.

- Xamirni 12 bo'lakka bo'lib, kraxmal sepib, yoyiladi. Kraxmal xamirlaringiz yopishib ketishiga yo'l qo'ymaydi, ularni ustma-ust qatlab, iloji boricha yupqa qilib yoying.

- Tayyor yoyilgan xamirlarni patniga moslab kesib, birma-bir har qatiga sariyog' surib chiqasiz.

- 5-6 qavat bo'lgandan so'ng, yong'oqqa shakar aralashtirib sepiladi va yana xamirlarni ustidan sariyog' surib, terib chiqasiz.

- O'rta qavatlariga chetlaridan kesib olingan xamirlarni ham tering.

- Hamma xamirlarni terib bo'lgach, ularni bo'laklarga bo'lib, kesib chiqib, 200 daraja qizdirilgan gaz pechida 40 daqiqa davomida pishirib oling.

- Paxlava pishguniga qadar qiyom tayyorlanadi. Buning uchun suv, asal va shakarni aralashtirib, 3-4 daqiqa davomida qaynating.

- Tayyor bo'lgan paxlavaning ustidan tayyor qiyomni quyib, yong'oq bilan bezating.

Yoqimli ishtaha!

QATLAMA

Kerakli masalliqlar:

suv – 200 ml
tuz – ta'bga ko'ra
osh sodasi – bir
chimdirm

sariyog' – 150 g

un – 500 g

qand upasi

pishirish uchun o'simlik
yog'i.

Tayyorlanish
jarayoni:

- Suvga tuz va osh sodasi solib, xamir qoriladi hamda zuvala qilib, 30 daqiqa tindiriladi.

- Zuvala yupqa qilib yoyiladi va yuziga sariyog' suriladi. So'ngra xamirni o'rab, yana biroz tindiring. Tingan xamirdan 1 sm qalinlikda qatlamalar yasaladi. Istaangiz, xamirlarni kesishingiz mumkin.

- Qatlamalar qizigan yog'da pishirib olinadi. Pishgan qatlamalar ustiga qandupa sepib, dasturxonaga tortiladi.

ITALYANCHA DESERT
„PANNA-KOTTA“

Kerakli masalliqlar:

qaymoq 10 foiz – 700 g

qora shokolad 70 foiz – 150 g

shakar – 70 g

jelatin

vanilin

oq shokolad

yong'oq.

Tayyorlanish jarayoni:

- Jelatinni 50 ml suvga ivitib qo'ying. Qaymoqni idishga solib, shakar va vanilinni shakar erigunicha past olovda aralashtirib turing. Erigach, olovdan olib, qirg'ichdan chiqarilgan shokolad qo'shing.

- Yaxshilab aralashtirib, ivitilgan jelatinni soling. Bir xil massa hosil bo'lgach, qoliplarga quyib, muzlatkichga qo'ying.

- 2-4 soatgacha muzlatkichda sovutilgan shirinlikni dasturxonaga tortishdan avval qirg'ichdan chiqarilgan oq shokolad va yong'oq bilan bezating.



BAHOR SALATI

Kerakli masalliqlar:

tuxum – 4 dona

qaynatilgan go'sht – 200 g

sabzi – 2 dona

bodring – 2 dona

rediska – 2 bog'

salat bargi – 2 bog'

mayonez, tuz.

Tayyorlanish jarayoni:

- Sabzi, go'sht, va tuxumni qaynatib oling. So'ngra hamma masalliqlarni bir xil shaklda to'g'rab, mayonez bilan aralashtiring.



ФИЛИППИН ҚУРУҚЛИКДАГИ ҚЎШИНЛАРИ



Осиёнинг жану-би-шарқий қисмида,

Тинч океандаги Филиппин архипелагида жойлашган Филиппин Республикаси ҳудуди (300 000 км²) ва аҳоли сони (деярли 85 млн киши) бўйича қитъамиздаги йирик давлатлардан бири ҳисобланади. Мамлакат 1946 йилнинг 4 июлида мустақил республика деб эълон қилинган. Мустақил ривожланиш йиллари мобайнида мамлакат раҳбарияти жамият ҳаётининг барча соҳалари қатори миллий армияни ривожлантиришга ҳам алоҳида эътибор қаратиб келмоқда.

Уч турдаги классик тузилмага эга бўлган Филиппин Қуролли Кучлари таркибида Қуруқликдаги қўшинлар (ҚҚ) энг кўп сонли тур ҳисобланади. Мамлакат суверенитети ва ҳудудий яхлитлигини ҳимоя қилишдан ташқари, бу турдаги қўшинлар турли сепаратив ва террорчи гуруҳларга қарши курашиш, ички сиёсий барқарорликни таъминлаш, фавқулодда вазиятлар оқибатларини бартараф этиш сингари вазифаларни ҳам бажаради. Ҳозирги даврда Қуруқликдаги қўшинларни ислоҳ қилиш ва янада такомиллаштириш борасида изчил олиб борилаётган ишлардан кўзда тутилган асосий мақсад мамлакат аҳолисини турли таҳдид ва хавф-хатарлардан ҳимоя қилишга қодир бўлган ҳаракатчан, жанговар қобилияти юқори ва профессионал армияни тузишдан иборат.

Ҳозирги вақтда бу турдаги қўшин шахсий таркибининг умумий сони 100 минг кишини ташкил этади (ҳарбий хизматчилар – 98,5 минг, фуқаро ходимлар – 1 500 киши). Бундан ташқари, резервда ҳам деярли 100 минг киши рўйхатга олинган.

Ташкилий жиҳатдан ҚҚ таркибидан штаб ва штаб гуруҳи (Форт-Бонифасио), 12 та дивизия (11 та пиёда ва 1 та бронетанк дивизияси), 5 та муҳандислар бригадаси, 1 та бригада жанговар гуруҳи, 8 та полк (скаут-рейн-жерлар, махсус вазифаларни бажарувчи, тезкор ҳаракатланувчи, артиллерия, разведка, армия авиацияси, алоқа ва фуқаро-ҳарбий ҳамкорлик),

4 та қўмондонлик (ўқув ва илмий тадқиқотлар, фронт орти, ҳарбий объектлар, резерв), 2 та марказ (молия ва кадрлар) жой олган. Филиппиннинг ўзига хос географик ҳолатидан келиб чиққан тарзда Қуруқликдаги қўшинлар учта ороллар гуруҳи – Лусон, Висайи ва Минданаога жойлаштирилган.

Ҳозирги вақтга келиб бу турдаги қўшинлар тасарруфида оғир қуролга эга бўлган 85 та зирҳли машина, 60 та пиёдалар жанговар машинаси, 655 та зирҳли транспортёр бор. Дала артиллерияси ва миномётларнинг умумий сони 850 та, танкка қарши воситалар 150 та, бошқа турдаги автомобиль техникаси 2 500 та ва самолётлар 10 тани ташкил этади. ҚҚ асосий жанговар танкларга эга эмас, фақат «Скорпион» (Англия) типидagi энгил танклар билан, денгиз авиацияси қисмлари эса АҚШда ишлаб чиқарилган «Цессна» типидagi энгил самолётлар билан таъминланган.

Филиппин Қуролли Кучларини модернизациялаш дастурининг биринчи босқичида (2013-2017 й) Қуруқликдаги қўшинларга М113А2 типидagi зирҳли транспортёрлар, КМ-250 типидagi юк автомобиллари, КМ-451 типидagi санитар машиналари, РПГ-7 типидagi гранатомётлар, автоматик милтиқлар, рақамли алоқа ва индивидуал ҳимоя воситалари, жанговар вазиятларни моделлаштириш тизимлари ва бошқалар етказиб берилди. Мазкур дастурнинг иккинчи босқичи (2018-2023 й) доирасида ҚҚни К-136 «Корионг» типидagi бараварига ўт очувчи ракета тизимлари, ATV типидagi йўл-танламас автомобиллар, «Тор», «Скайларк-1», «Скайларк-3» ва «Гермес-450» типидagi учувчисиз учуш аппаратлари, танклар учун кўприк ётқизгичлар, турли типдаги зирҳланган муҳандислик машиналари билан таъминлаш кўзда тутилган. 2022 йилда гусеницали ва ғилдиракли зирҳланган жанговар машиналар, тактик автомобиллар, «Мистраль» ва «Чирон» типидagi кўчма зенит-ракета комплекслари, 81 ва 60 мм.ли миномётлар, 40 мм.ли қўл гранатомётлари, муҳандислик машиналари,

шунингдек, бир қанча самолётлар, зарбдор, кўп мақсадли ва ўқув вертолётларини харид қилиш бўйича тегишли шартномалар тузиш режалаштирилган.

Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш жоизки, 2020 йилнинг май ойида АҚШ Давлат департаменти Филиппинга умумий миқдори деярли 2 млрд долларга тенг бўлган шартнома доирасида 6 та АН-64Е «Апач» ва 6 та АН-12 «Вайпер» типидagi вертолётлар сотилишини маъқуллаган. Шунингдек, Қўшма Штатлар бу мамлакат Қуролли Кучларига беғараз ёрдам сифатида С-12 «Гурон» типидagi 5 та самолёт, тўртта УН-60 «Блэк Хок» ва тўртта АН-1 «Кобра» типидagi вертолётларни етказиб бериш масаласини кўриб чиқмоқда.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, ҳозирги даврга келиб Филиппин армиясининг Қуруқликдаги қўшинлари исёнчи ва террорчи гуруҳларга қарши кураш олиб бориш, шунингдек, турли характердаги фавқулодда вазиятларнинг оқибатларини бартараф этиш борасидаги вазифаларни самарали ҳал қилишга қодир. Шу билан биргаликда, миллий армиянинг ташқи агрессияларни қайтариш салоҳияти паст даражада, деб ҳисобланади. Шу сабабли ҳам ҚҚ қўмондонлиги оператив ва жанговар тайёргарлик бўйича турли тадбирларни ўтказиб бориш ҳисобига қўшинларнинг жанговар қобилиятини оширишга ҳаракат қилмоқда. Бу турдаги қўшинларни ривожлантириш истиқболлари қўмондонликнинг турли молиявий чекловлар шароитларида ҚҚни ислоҳ қилиш бўйича 2028 йилгача бўлган даврга мўлжалланган режаларни амалга ошириш қобилиятига боғлиқ бўлиб қолмоқда.



ҚЎШИН ТУРИ – ҚУРУҚЛИКДАГИ ҚЎШИНЛАР

- Умумий сони – 100 минг киши**
-  Зирҳли жанговар машиналар – 800 та.
-  Бошқа турдаги автомобиллар – 2 500 та.
-  Артиллерия тўғлари, миномётлар – 850 та.
-  Танкка қарши ракета комплекслари – 150 та.
-  Жанговар самолётлар – 10 та.

П. САЙДИВАЛИЕВ тайёрлади.

O'ZBEKISTONDA



BEG'ARAZ YORDAM SIFATIDA

AQShdan Qoraqalpog'iston tibbiyot muassasalari uchun mo'ljallangan va umumiy qiymati 3 million dollarni tashkil etuvchi tibbiy asbob-uskuna va tibbiy buyumlardan iborat navbatdagi insonparvarlik yuklari ortilgan to'rtinchi konteynerning jo'natilishi tashkil etildi. "Project C.U.R.E." tashkilotining xalqaro hukumatlar bilan ishlash bo'yicha direktori Melis Esposti ma'lum qilishicha, Qoraqalpog'iston Sog'liqni saqlash vazirligi talabiga muvofiq shakllantirilgan gumanitar yuklar umumiy hajmi 6,5 tonnadan oshadi. Beg'araz yordam yuklari tarkibi operatsiya stollari uchun matraslar, gemodializ apparatlari, chaqaloqlar uchun intensiv terapiya inkubatorlari, laboratoriya anjomlari, tibbiy kislorod ballonlari va boshqa tibbiy asbob-uskunalaridan tashkil topgan.



MARG'ILONDA YANGI UNIVERSITET

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Marg'ilon shahrida Shveysariya tibbiyot va axborot texnologiyalari universitetini tashkil etish to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi. Unga ko'ra, Farg'ona viloyati hokimligining Marg'ilon shahrida Shveysariya tibbiyot va axborot texnologiyalari universitetini (Swiss Medical and Information Technologies University) tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi. Viloyat hokimligi tomonidan universitet bino va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, jihozlash hamda Internet orqali o'qitish tizimi moddiy-texnik ta'minoti amalga oshiriladi. Qarorda universitetning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari belgilangan bo'lib, ta'lim faoliyati 2022/2023 o'quv yilidan boshlanadi va o'qitish O'zbekistonda amalda mavjud ta'lim shakllari, o'zbek va ingliz tillarida grant hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.



MAHORAT MAKTABLARI OCHILADI

Prezidentimiz tomonidan boks bo'yicha Bahodir Jalolov sport mahorati maktabi va gimnastika bo'yicha Oksana Chusovitina sport mahorati maktabi tashkil etilishini nazarda tutadigan ikkita qaror imzolandi. Qarorda Sportni rivojlantirish vazirligi tizimida tashkil etiladigan va 2022/2023 o'quv yilidan o'z faoliyatini boshlaydigan har ikki maktab oldiga qo'yiladigan asosiy vazifalari belgilangan. Boks maktabi o'quvchilarining umumiy kontingenti jami 175 nafarni tashkil etib, ular 5-11-sinf o'quvchilaridan iborat bo'ladi, gimnastika maktabi o'quvchilarining umumiy kontingenti jami 165 nafarni tashkil etib, ular 1-11-sinf o'quvchilaridan iborat bo'ladi. Boks va gimnastika maktablarini tashkil etish va jihozlash uchun davlat byudjetidan jami 50 mlrd so'm yo'naltiriladi.

(O'ZA)

JAHONDA

MUZOKARALAR FAOLLASHDI



Saudiya Arabistoni Xitoyga neftni yuanda sotmoqchi, deb xabar berdi "Wall Street Journal" o'z manbalariga tayanib. "Saudiya Arabistoni o'z neftini Xitoyga qisman yuanda sotish bo'yicha Pekin bilan faol muzokara olib bormoqda", deyiladi xabarda. Qayd etilishicha, bu masala bir necha yildan buyon muhokama qilib kelingan, ammo bu yil Ar-Riyod Vashingtonning xavfsizlik sohasidagi majburiyatlaridan norozi bo'layotgani sababli muhokama faol tus olgan. Avvalroq Hindiston

va Rossiya o'zaro hisob-kitoblarni dollar va yevroda emas, balki rubl va rupiyada olib borish imkoniyatini o'rganayotgani xabar qilingan edi.

YIRIK HARBIIY MASHG'ULOTLAR



Shimoliy Atlantika alyansi (NATO) Norvegiya hududida joriy yildagi eng yirik harbiy mashg'ulotlarini boshladi, deb xabar berdi DW. 1-aprelgacha davom etadigan Cold Response harbiy mashg'ulotlarida tashkilotga a'zo 27 mamlakatdan 30 mingga yaqin askar, 200 ta samolyot va 50 ta kema qatnashishi rejalashtirilgan. Keng ko'lamli mashg'ulotlar suvda, havoda va quruqlikda o'tkaziladi. Ma'lumotlarga ko'ra,

mashg'ulotlar Rossiya chegarasidan bir necha yuz kilometr uzoqlikda bo'lib o'tadi. Cold Response mashg'ulotlarida Norvegiyaga qo'shni mamlakatlar – NATOga a'zo bo'lgan Shvetsiya va Finlyandiya ham ishtirok etadi.

ISLOH QILINISHI LOZIM



Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an BMT tizimini isloh qilish vaqti kelganini aytdi. "BMTga a'zo 193 mamlakat taqdirini besh mamlakat belgilaydigan tizim adolatdan emas. Tizim qayta isloh qilinishi kerak. Dunyodagi mamlakatlar beshtadan ko'pligini gapirganimizda butun insoniyatning huquq va umumiy manfaatlarini himoya qilishga urinamiz, buni o'z mamlakatimiz manfaati uchun gapirmaymiz", – dedi u. Turkiya rahbari BMTni birinchi marta tanqid qilishi emas. Erdog'an

2021-yil oktabrda Angolaga tashrifi vaqtida ham insoniyat taqdiri Ikkinchi jahon urushida g'alaba qozongan "bir siqim mamlakatlar" ixtiyoriga tashlab qo'yilmasligi kerakligini aytgan edi.

MUDOFAANI MUSTAHKAMLASH UCHUN



Avstraliya Bosh vaziri Skott Morrison mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan choralar rejasini e'lon qildi. "Avstraliyaliklar xavfsizligini saqlash hukumatimizning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun Avstraliyani himoya qila oladigan yanada yirik mudofaa kuchlari, ko'proq askarlar, dengizchilar va uchuvchilar kerak bo'ladi", deb ta'kidladi Morrison. Avstraliya hukumati

rejasiga ko'ra, 2040-yilga borib mamlakat Qurolli Kuchlaridagi doimiy xizmatchilar soni 30 foizga – 80 ming kishigacha oshiriladi. Bosh vazir qo'shimcha qilishicha, Qurolli Kuchlarning ko'paytirilishi 38 mlrd avstraliya dollariga (28 mlrd AQSh dollari) tushadi.

MINTAQADA



KONLARNI O'ZLASHTIRISH MASALASIDA

Xitoy "Tolibon" harakati vakillari bilan Afg'onistondagi eng yirik Mes Aynak mis konini o'zlashtirish bo'yicha muzokaralar boshladi, deb xabar berdi "Wall Street Journal" nashri. Bu kon poytaxt Kobuldan 40 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, metall zaxiralari bo'yicha dunyodagi eng yirik konlardan biri hisoblanadi. Qayd etilishicha, Pekin, shuningdek, mamlakatning shimoliy qismidagi Amudaryo neft-gaz hududida foydali qazilmalarni qazib olish imkoniyatini ham ko'rib chiqmoqda. Nashr ma'lumotiga ko'ra, Afg'oniston g'arbidagi yirik temir konini o'zlashtirish bo'yicha Eron ham muzokara o'tkazmoqda. Amerikalik ekspertlar o'n yil avval Afg'onistondagi barcha mineral resurslar qiymati 1 trln dollarga teng, deb baholagan edi.



TERGOV MA'LUMOTLARIGA KO'RA

Qozog'iston milliy xavfsizlik qo'mitasi 2016-yilgacha Qozog'iston Bosh vaziri bo'lgan, 2016-2022-yillarda Milliy xavfsizlik qo'mitasini boshqargan Karim Masimov ustidan olib borilayotgan tergov jarayoni bo'yicha ayrim ma'lumotlarni e'lon qildi. Unga ko'ra, sobiq raisning uyi tintuv qilinganida 17,2 million AQSh dollari miqdorida naqd pul, qimmatbaho soatlar, tilla quymalar va ko'plab noyob buyumlar aniqlangan. Shuningdek, Karim Masimov pora sifatida olgani aytilayotgan 2 mln dollar xorijdan qaytarilgan, gumondorga tegishli ko'chmas mulklar va 11 ta qimmatbaho biznes-klass avtomobillari xatlangan, uning yaqinlaridan 5,1 mln dollar musodara qilingan. Karim Masimov 2022-yil yanvaridagi taribsizliklar fonida davlatga xiyonatda ayblanib qamoqqa olingan edi.



O'ZARO KELISHUVGA ERISHILDI

Qirg'iziston va Tojikiston delegatsiyalari o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralarda chegara xavfsizligini ta'minlash bo'yicha turli masalalar muhokama qilindi va so'nggi vaqtlarda birgalikda qo'riqlanadigan chegara hududida noxush hodisalar soni ko'payganiga alohida e'tibor qaratildi. Muzokaralar yakuniga ko'ra, tomonlar ikki davlatning chegaradosh hududlarida noxush hodisalarning oldini olishga qaratilgan o'zaro hamkorlik va sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish, chegaradagi mavjud vaziyat to'g'risida muntazam ma'lumot almashib borish, har ikki davlat harbiy xizmatchilariga qurol ishlatishni taqiqlashga kelishib olishdi.



IQLIMGA MOSLASHGAN MASHINALAR

Qirg'izistonga 58 ta yangi o't o'chirish mashinasi olib kelindi. Bu haqda favqulodda holatlar vaziri Boobek Ajikeyev ma'lum qilgan. Ma'lumotga ko'ra, yangi mashinalar Jahon bankining moddiy ko'magi bilan "Tabiiy ofatlarga bardoshlilikni oshirish" (ERIK) loyihasi asosida xarid qilingan. Shuningdek, vazir o't o'chiruvchilar uchun 300 dona maxsus kiyim olingani, yaqin orada vazirlik hisobidan yana qo'shimcha 700 dona kiyim olinishini qo'shimcha qilgan. "O't o'chirish mashinalari sig'imi 6 tonnalik sistemalarga ega, zamonaviy o't o'chirish texnikalari hamda maxsus vositalar bilan jihozlangan. Bu mashinalar bizning iqlimda ishlashga to'la moslashgan", dedi vazir.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Koson tumani o'quv sport-texnika klubida sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, turli sport to'garaklari ishini yo'lga qo'yish, sport musobaqalarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



KLUBDA YOSHLAR UCHUN QULAY IMKONIYATLAR YARATILGAN

Xususan, klub moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xo'jalik hisobidan tushgan mablag'larni sport inventarlari va jihozlarini xarid qilishga yo'naltirish uchun yaratilgan keng imkoniyatlar jumlasidandir.

– Ayni paytda O'STK qoshida "Havo miltig'idan o'q otish", "Duatlon" hamda "Karting" kabi seksiyalar faoliyat yuritmoqda. Klub a'zolari viloyat va respublika musobaqalarida faol ishtirok etib kelyapti, – deydi O'STK boshlig'i Sardor Qurbonov. – Chunonchi, yaqinda viloyat musobaqasida ishtirok etgan kartingchilarimiz umumjamo'a hisobida birinchilikni qo'lga kiritib, Namanganda o'tkazilgan mamlakat bosqichida sovrinli o'rinni egallashdi. Shuningdek, Qarshi shahrida o'tkazilgan o'q otish bo'yicha viloyat musobaqasida ishtirok etgan merganlarimiz – Nilufar Toshpo'latova, Sevinch Jo'raqulova hamda Asadbek Zokirov shohsupaning yuqori pog'onasiga ko'tarilib, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

– Shu kunlarda 50 nafarga yaqin o'smir sport to'garaklarida mashg'ulot



o'tamoqda, – deya suhbatga qo'shildi klubning sport murabbiysi Alisher Siddiqov. – O'z navbatida klubimizda sportchi yoshlarning muntazam shug'ullanishlari uchun qulay imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Maqsadimiz – yosh avlod o'rtasida sportni ommalashtirish, shuning barobarida ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdan iborat.

Tashkilot faoliyatining muhim yo'nalishlaridan yana biri ommaviy kasb xodimlarini tayyorlashdir. Ayni paytda bu yo'nalishda "B", "BC", "E" toifali haydovchi mutaxassislar tayyorlanmoqda. Buning uchun tashkilot yetarli o'quv-moddiy bazaga ega: barcha kerakli texnik qurilmalar hamda transport vositalari bilan ta'minlangan.

Shuningdek, yoshlarning qalbida vatanparvarlik hissinii shakllantirish maqsadida ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ'iboti doirasida ham qator salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Koson tumani mudofaa ishlari va xalq ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda o'tkaziladigan tadbirlar shular jumlasidandir.

Akbar ALLAMURODOV

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAASIGA KO'MAKLASHUVCHI
"VATANPARVAR" TASHKILOTI NAMANGAN
VILOYATI KENGASHI JAMOASI**

yangilanish va yasharish ayyomi – Navro'z umumxalq bayrami bilan Vatanimiz osoyishtaligi yo'lida tun-u kun hushyor turib, sharaflari va mas'uliyatli xizmat burchini mardonavor ado etayotgan harbiy xizmatchilarni, shuningdek, "Vatanparvar" tashkilotida mehnat qilayotgan barcha hamkasblarini hamda butun mamlakatimiz ahlini samimiy muborakbod etadi.

*Har tuning qadr o'libon,
Har kuning bo'lsin Navro'z!*

**O'ZBEKISTON MILLIY
TELERADIOKOMPANIYASINING "MAXSUS
AVTOKORXONA" DAVLAT UNITAR
KORXONASI JAMOASI**

*jannatmakon yurtimiz tabiati uyg'ona boshlagan
bugungi shukuhli damlarda O'zbekiston xalqini
Navro'zi olam bilan tabriklaydi.
Ushbu ayyom barchangizga bahoriy xush kayfiyat,
baxt va omad olib kelsin!*

Bayramingiz muborak bo'lsin!

BOLAJOY

NAVRO'Z KELDI, NAVBAHOR KELDI

O'lkamizda bahor. Butun olamga Navro'z kirib keladi. Hammayoq gullar bilan bezanadi.

Navro'z dasturxoniga qaymoq, jizza, yong'oq solib cho'zma-chalpag-u kulcha, patir, lochiralari pishiriladi. Yalpiz, ismaloq kabi ko'katlardan somsalar tayyorlab, tortiladi. Doshqozonlarda eng lazzatli Navro'z taomlaridan biri sumalakni pishirishadi. Bayram kunlari hamma dala, qir, bog'rog'larga chiqib, o'yin-kulgi qilib dam oladilar.



SUMALAK

Bir dehqon bahor kelishi bilan urug'likka olib qo'ygan donini suvga ivitib qo'yibdi. Lekin birdan havo aynib, yomg'ir yog'a boshlabdi. Bug'doy ivitilgan idishda nish urib o'sa boshlabdi. Ob-havo hadeganda ochilavermabdi.

Dehqonning ro'zg'ori zo'rg'a o'tib turgan, bola-chaqasi och ekan. "Nishlab ketgan bug'doy uvol bo'lmasin, biron narsa pishirib bera qolay", deb o'ylabdi dehqon. Bu orada bug'doy ancha bo'y cho'zib qolibdi. Dehqon bug'doyni qiymalabdi-da, kampiriga:

– Bundan biron narsa pishir, baribir uvol bo'lib ketadi, – debdi.

Kampir qiymalangan bug'doyni qozonga solib qaynataveribdi-qaynataveribdi. Oxiri qaynatishdan charchab, qozonning qopqog'ini yopibdi-da, uxlagani yotibdi. Ertalab azonda uyqusi o'chib, qozondan xabar olgani boribdi. Qopqoqni ochib ko'rgan ekan, ajoyib hid dimog'iga urilibdi. Tatib ko'rsa, qozondagi qiyom juda mazali emish, hidi juda yoqimli, o'zi to'yimli emish.

"Rivoyatlar to'plami" kitobidan olindi.



Kelasi yili bahorda dehqon bolalarining yana o'sha taomdan yegilari kelibdi. Shu tariqa sumalak pishirish udumi paydo bo'libdi. Bu taom xalq o'rtasida keng tarqalib, bahorning lazzatli ne'matiga aylanibdi. Keyinchalik dehqonlar donni faqat urug'likka emas, balki sumalak pishirish uchun ham olib qo'yadigan bo'lishibdi. Urug'likka olib qo'yilgan dondan mo'l-ko'l hosil ko'tarilsa, sumalakka asrab qo'yilgan bug'doydan esa kishilar o'zining sog'lig'ini tiklash va bardam bo'lish uchun hayotbaxsh taom tayyorlashar ekan.



BUVIM VA KO'KLAM

Buvimni juda yaxshi ko'raman. Bahorni his qilgan kunimdan boshlab ularni qattiq sog'ina boshladim. Bahorni qanday his qilganimni bilasizmi? Bir kun sahar turib, derazalarni ochganimda, tashqaridan nam tuproq hidi aralash yoqimli shabada xonamga yopirilib kirdi. Xuddi buvimning qo'llari kabi yoqimli, mayin, meni erkalagandek bo'ldi.

Sahar turishni ham buvim o'rgatganlar. Hozir shaharda yashasak-da, qishloqda tug'ilganman. Buvimga yordamchi edim. Baland tomdan gul urug'larini o'zim olib tushardim. Hozir ularga tomdan gul urug'larini kim olib berayotgan ekan, a?

Ta'til tezroq boshlansa edi, qishloqqa ketar edik. Buvim bilan gul urug'larini qadardik. Keyingi ta'tilga qadar bu urug'lar unib chiqib, chamandek ochiladi.

Bahorni yaxshi ko'raman, chunki u buvimga o'xshaydi.

Rustambek ABDUVOITOV

TENGDOHLARINGIZ IJODIDAN



Mehribon SEYTNAZAROVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
210-maktabning 6-sinf o'quvchisi

MEHRIBON BUVIJONIM

*Mehribonim buvijon,
Azizamsiz xushxandon.*

*Onaginam onasi,
Qalbimning durdonasi.*

*Saodatim, baxtimsiz,
Tilla toj-u taxtimsiz.*

*Siz, qahramon onasiz,
Yonasiz, parvonasiz.*

*Uyimiz farishtasi,
Saranjom-sarishtasi.*

*Fe'lingiz bir muloyim,
Yuzga kiring, iloyim.*

*Siz bilan olam go'zal,
Dildan kuylanar g'azal.*

*Men she'r yozgan onimda,
Kulib turing yonimda.*

*Xizmatizingizda bizlar,
Baxtiyor o'g'il-qizlar.*

*Mehribon buvijonim,
Sizga fidodir jonim.*

Madina MAMADALIYEVA,
Mirobod tumanidagi
213-maktabning 8-sinf o'quvchisi



Dadam – harbiy xizmatchi. Hozir Toshkentda yashaymiz. Shahar juda chiroyli. Bu yerda hamma narsa bor. Bog'lar, xiyobonlar. Havo tozargan paytlar ko'p qavatli uylarning ayvonidan olis tog'larni ko'rish mumkin. Bu menga Urgutni eslatadi. Ammo hecham Urgutga o'xshamaydi.

Men Urgutda tug'ilganman, o'rtoqlarim, qarindoshlarim ko'p u yerda. Toshkentga kelishni hech istamadim. Bobomdan, momomdan uzoqda yashashni tasavvur qila olmasdim-da. Ulardan ajralolmasdan yig'ladim, momom ham yig'ladi... Keyin ham borganimizda shaharga qaytgim kelmasdi, har safar ortimga yig'lab-yig'lab qaytganman. Hozir ham sog'inaman, qaytayotganimizda yig'lagim keladi. Ammo endi katta bola bo'ldim.

Urgut juda chiroyli joy. Uzumzorlar, bog'lar, yuksak tog'larga qo'l uzatsang yetgudek bo'ladi. Bu yerlarni qanchalik yaxshi ko'rishimni bilsangiz edi... Amakilarim, ammalarim, jo'ralarim bor bu yerda. Keyin... kindik qonim to'kilgan yer – URGUT.

Og'abek SOBIROV,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
248-maktab o'quvchisi

Наврўз қайси ном билан аталмасин, у миллатнинг улуг кунини, янгила- ниш, покланиш, яшариш, юксалиш байрами. Фольклор-этнографик жа- моаларнинг ранг-баранг ашула ва рақслари, шўх яллаларда, полвону чавандозлар чиқишида Наврўзнинг хилма-хил ва ноёб қирралари намоиш этилади.

БИЛАР ЭДИНГИЗМИ?

Наврўзни бутун дунё бўйлаб 300 млн.дан зиёдроқ киши нишон- лайди. 2009 йилда Наврўз ЮНЕСКО- нинг инсониятнинг номоддий мада- ний мероси рўйхатига киритилган. Кейинчалик 2010 йилда Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан Наврўз байрами халқаро байрам деб эълон қилинган.

Байрам удумлари:

➤ Берунийнинг таърифича, Нав- рўз кунини тонг отганда инсонлар би- ровга гапиришдан олдин уч қошиқ асал ялаш удуми бўлган;

➤ одамлар бир-бирларига ши- ринликлар, гуллар тақдим қилиш- ган, («ҳаётингиз ширин ва гўзал бўлсин» деган маънода), бу йил сув кўп бўлсин, мўл ҳосил бўлсин, деган маънода бир-бирларига сув сепишган;

➤ ўзаро давом этаётган урушлар тўхтатилган, гина-кудуратлар уну- тилган, тинч ва яхши қўшничилик алоқалари мустаҳкамланган;

➤ байрам дастурхонидан 7 хил дон маҳсулотларидан иборат таом- лар жой олган;

➤ шу кунини ўтти балоғатга етмаган ўғил бола чақмоқ ёрдамида ёндир- ган. Ушбу олов бутун инсониятга ба- рака олиб келади, деб ишонишган;

➤ Наврўзда кўчат экиш, айниқса, тут, анжир ва қорақайин экишни одат тусига киритишган.

ОЛТИНСОЙДА ХАЛҚ

СОҒИНГАН БАЙРАМ



олиб, эски халқ оҳанглари руҳиятингизга олиб киради.

Ушбу сайил ҳар йили ўзига хос тарзда ўтса-да, бу йилгиси доимги- ларидан ажралиб турди. Гоҳ қир юзини майин ёмғир силаб ўта- ди, гоҳ кўёш булутлар ораси- дан мўралади.

Халқ байрамни мароқ билан кузатар экан, айниқса, ҳарбий хизматчилар то- монидан тайёр- ланган чиқишлар олқишларга кўми- либ кетди. Хайробод гарнизонига қарашли ҳарбий қисм ҳарбий хиз- матчилари, фахрий қоровул, ҳарбий оркестр чиқишлари барчанинг диққатини бир нуқтага жамлай олди.

Кутилмаганда дўмбирасини сошлаб: «Бахшининг боласи бахши бўлади, Ях- шининг боласи яхши бўлади», дея даврага чиққан ҳаваскор ҳарбий бахши – контракт бўйича ҳарбий хизматчи, оддий аскар Рустам Бакиров айтимларидан қир-адир бирдай ларзага келди. Чунки халқ кўпдан буён бахши хонишлари- ни соғинган эди. Қарсақлар давомли бўлди. II даражали сержант Ойбек Даминовнинг фарзанди 6 ёшли Муҳаммаджон Хушмуродов шундай шўхчан куйладики, жўр бўлмаган, ўйнамаган одам қолмади ҳисоб.

Адирнинг ҳар чеккасида тикилган ўтовлар миллий тарихимиз, анъаналаримиз ҳақида ҳикоя қилади. Ундаги сўзаналар, нақшлар жозибаси, миллий ҳунармандчилик намуналари сурхон этно- маданияти силсиласини кўрсатиб туради.

Хуллас, Наврўз халқ ўйинлари, халқ оғзаки ижоди намуналари билан халқ байрамига айланиб кетди. Қолган лавҳалар ҳақида энди суратлар сўзласин...

Алпомиш юрти Сур- хондарёда Наврўз тан- таналари ўзгача нишон- ланишини кўпчилик билади. Олтинсой туманидаги Қорлиқ маҳалласи адирлигида ўтган Нав- рўз сайили юзлаб юртдошларимиз- нинг ушбу байрамга бўлган юксак

эҳтироми, соғинчини ифодалаб берди.

Тўрт томони тоғларга тутшиб кетувчи қирлар бағрида ўтовлар тикилди. Халқ ўйинлари, бахши- лар айтишуви, варрак учирини, миллий кураш... хуллас ўзбекнинг ўзлигини намоён этувчи ма- даният намуналари... Қай бир кекса момо билан юзлашманг Наврўз хусусида ўзгача ривоятлар, афсоналар айтиб беради. Гап орасида чанқовузини

Катта лейтенант Бобур ЭЛМУРОДОВ

ТАЪЗИЯНОМА

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги раҳбарияти, марказий аппарати ва шахсий таркиби вазирлик Тарбиявий ва мафқуравий ишлар бош бошқармаси ҳарбий хизматчилар- нинг оилалари билан ишлаш бўлими бошлиғи подполковник Қаландаров Жаҳонгир Рўзимбаевичга отаси **Рўзимбай ҚАЛАНДАРОВ Отамуродовичнинг** вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

polkovnik Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

mayor Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: mayor Gulnora Hojimurodova

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: G-0305

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 32 927 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

“Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,

Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:

100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.